

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA

O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Huquqshunoslik yo'nalishi talabalari uchun

«INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANIDAN

Amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



Namangan – 2010 yil

Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha **amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma**.

Tuzuvchilar: katta o'qituvchi M. Eshnazarova, kat.o'q. F. Otabayeva

Taqrizchi: f.-m.f.n., dots A. Imomov, f.m.f.n., dots T. Ergashev

Ushbu amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanmasi **huquqshunoslik** yo'nalishdagi bakalavrlarning o'quv rejalaridagi Informatika va axborot texnologiyalari fani dasturiga asosan tuzilgan bo'lib, u butun kurs materialini to'la qamrab olgan. To'plamdagi har bir amaliy mashg'ulotida tuzuvchilar tomonidan ishning maqsad va vazifalari, kerakli vosita, mavzuning qisqacha bayoni va tushunchalar berilganidan so'ng bajaruvchiga muayyan (konkret) topshiriq qo'yilgan. Bajaruvchiga qulaylik yaratish uchun **topshiriqdagi vazifalarning** ma'lumotlar ba'zasi bevosita bajaruvchining o'zi, oilasi, guruxi, o'qiyotgan fanining adabiyotlari yoki o'zi tanlagan (qiziqqan) yo'nalishdagi jarayon va ma'lumotlar bilan **bog'langan**. Bajarilgan ishni baholash belgilangan me'yorlar asosida shu mavzuga ajratilgan umumiy soatdan kelib chiqqan xolda amalga oshirilishi ko'rsatib qo'yilgan.

Uslubiy qo'llanmadagi xar bir amaliy mashg'ulot ishi yo'nalishning davlat standartlari talablariga ko'ra fan dasturi bo'yicha shu mavzu uchun ajratilgan soatlar doirasida va yo'nalishning xususiyatlarini xisobga olgan xolda bajarish va baxolash imkoniyatini beradi.

Uslubiy qo'llanma NamDU «Amaliy matematika va AT» kafedrasining 2010 yil 26 avgust oyidagi yig'ilishida ma'qullangan.

Uslubiy qo'llanma NamDU Matematika fakultetining 2010 yil 26 avgust oyidagi o'quv uslubiy kengashida nashr uchun tavsiya etilgan.

Uslubiy qo'llanma NamDU o'quv-uslubiy kengashining 2010 yil 28 avgust oyidagi o'quv uslubiy kengashida nashr uchun tavsiya etilgan.

«Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz-jamiatimiz a`zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol topdirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini o'yg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir»

Islom Karimov

Informatika va axborotlar texnologiyasi fanida amaliy dasturlar juda katta ahamiyatga ega bo'lib, bular asosiy vazifalari bir biridan farqli ravishda kompyuterdan foydalanishning moxiyatini yoritib beradi.

MASALAN:

MS DOS operatsion tizimidadagi ko'pgina buyruqlar Norton Commander qobiq dasturida funktsional tugmalar yordamida bajariladi.

Windows operatsion tizimida ham disk, fayl, kataloglar bilan ishlashning bir necha qulayliklari bo'lib, ular bilan ishlashda amaliy mashg'ulotlarning o'rni juda ham muhim ahamiyatga ega.

WORD - matnli hujjatlarni tuzish, ko'zdan kechirish, taxrir qilish va chop etish uchun xizmat qiladi.

WORD - matnli va tasviriy ma'lumotlar ustida yuzdan ortiq operatsiyalarni bajaruvchi va matnli dasturlar sinfiga kiruvchi eng takomillashgan amaliy dasturlardan biri hisoblanadi.

WORD yordamida ixtiyoriy ko'rinishdagi xujjatni juda tez va yuqori sifatli tayyorlash mumkin.

EXCEL - elektron jadval. U WINDOWS operatsion tizimi boshqaruvida ma'lumotli elektron jadvalni tayyorlash va qayta ishlashga mo'ljallangan.

EXCEL da tayyorlangan xar bir xujjat ixtiyoriy ism .XLS kengaytmadan iborat fayl bo'ladi.

ACCESS - ma'lumotlar ombori. Bu amaliy dasturda axborotlarni jamlash, qayta ishlash, saqlash, uzatish va xakozo amallar bajariladi.

POWER POINT - universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar. Animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi. Ma'lumotlarni taqdimot qilishda qo'llaniladi. Bularni slayd yaratish, tasvir chiqarish, diagramma, akustik

malumotlardan foydalanish, animatsiya ishlarini bajarishda va sho'nga o'xshash amallarni bajarish jarayonida qo'llaniladi.

Paint va Photoshop – rasmlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan dasturlardir. Photoshop dasturi yordamida eski rasmlarni qayta ishlash, rasm ustida qirqib olish, birlashtirish, bir qismini ochirish va x.k. amallarni bajarish mumkin.

INTERNET- Internet - bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jaxon global kompyuter tarmoqidir. Uning nomi "tarmoqlararo" degan ma'noni anglatadi. Internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri xisoblanadi. Ushbu kashfiyot tufayli butun jaxon bo'ylab yoyilib ketgan yuz millionlab kompyuterlarni yagona informatsion muxitga biriktirish imkoniyati tug'ildi. Internetning asosiy yacheykalari - lokal xisoblash tarmoqlaridir. Demakki, Internet aloxida kompyuterlar o'rtasida aloqa o'rnatibgina qolmay, kompyuterlar guruxiga birlashish uchun yo'l ochadi. Agar biron-bir lokal tarmoq bevosita Internetga ulangan bo'lsa, u xolda mazkur tarmoqning xar bir ishchi stansiyasi Internetga ulanishi mumkin.

Magic Goody – maxsus tarjimon dastur xisoblanib, rus tilidan ingliz tiliga va aksincha, ingliz tilidan rustiliga so'z, gapni tarjima qiluvchi dasturdir.

Fotorobort – turli belgilar asosida inson fotorobortini tayyorlash uchun mo'ljallangan dastur. Jinoyatchilik bo'limlarida jinoyatchini ko'rgan guvoxlar ko'rsatmasiga asosan uning fotorobortini tez va sifatli tayyorlash uchun juda qulay xisoblangani uchun ushbu dastur Huquqshunoslik yo'nalishi "Informatika va axborotlar texnologiyasi" fani ishchi dasturiga kiritilgan. Huquqshunoslik yo'nalishida xam zamonaviy texnologiyalarni qo'llash olib borilayotgan ishlar samaradorligini, sifatini oshiradi, eng asosiysi vaqt tejaladi.

Amaliy mashg'ulot № 1

KOMPYUTERNING TUZILISHI

MASHG'ULOTNING MAQSADI: Kompyuter klaviaturasida mavjud bo'lgan tugmachalar majmuining vazifalarini va kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llarini amalda ko'rsatish.

MASHG'ULOTNING JIHOZI: ko'rgazmali material

- a) Kompyuter qurilmalari.
- b) Turli amaliy dasturlar bilan ishlash.

MASHG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium IV komp'yuterlari bilan jihozlangan komp'yuter sinfi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

- a) **Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.**
- b) **Yo'qlama qilish.**
- v) **Yangi mavzuning bayoni:** Kompyuter tuzilishi, dasturiy ta'minot
- g) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'tilgan mavzu bo'yicha mashq bajarish.
- e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

Amaliy mashg'ulot mavzusining qisqacha bayoni:

Kompyuter - inglizcha so'z bo'lib, u hisoblovchi demakdir. Garchand u hozirda faqat hisoblovchi bo'lmasdan, matnlar, tovush, video va boshqa ma'lumotlar ustida ham amallar bajaradi. Sho'nga qaramasdan hozirda uning eski nomi – kompyuter saqlangan. Uning asosiy vazifasi turli ma'lumotlarni qayta ishlashdan iborat. Avallo shuni aytish lozimki, ko'pchilikning tushunchasida go'yoki biz kundalikda foydalanadigan faqat shaxsiy kompyuter bor xolos. Kompyuterlarning amalda turli xillari mavjud: raqamli, analogli (uzluksiz), raqamli-analogli, maxsuslashtirilgan.

Kompyuterlarni xotirasining hajmi, bir sekundda bajaradigan amallar tezligi, ma'lumotlarning razryad to'rida (yacheykalarda) tasvirlanishiga qarab, besh guruhga bo'lish mumkin:

- super kompyuterlar (Super Computer);
- katta kompyuterlar (Manframe Computer);
- mini kompyuterlar (Minicomputer);
- shaxsiy kompyuterlar (PC-Personal Computer);
- bloknot(noutbook) kompyuterlar.

Shaxsiy kompyuterlarning tuzilishi

Shaxsiy kompyuterlar (inglizcha Personal Computers, qisqacha- PC) quyidagi qurilmalardan tashkil topgan:

- sistema bloki;
- monitor;
- klaviatura;
- sichqoncha, tashqi qurilmalar.

IBM firmasiga taalluqli shaxsiy kompyuterlar, inglizcha IBM PC kompyuterlari atamasida yuritiladi va ular hozirgi kunda eng keng tarqalgandir.

Sistema bloki

Sistema bloki odatda desktop (yassi) yoki town (minora) ko'rinishida ishlab chiqariladi.




Yassi va minora ko'rinishidagi sistema bloklari

Kompyuterning asosiy qismlari sistema blokida joylashgan bo'lib, ular quyidagilardir:

Tezkor xotira (RAM-Random Access Memory-ixtiyoriy kirish mumkin bo'lgan) *mikroprotssessor*, *qurilmalar nazoratchilari*, (ya'ni kontrolerlar, adapterlar, elektr manbai bilan ta'minlash bloki), *yumshoq disk qurilmasi* (FDD-Floppy Disk Driver), *qattiq disk qurilmasi* (HDD-Hard Disk Driver), *faqat o'qish uchun mo'ljallangan lazer disk qurilmasi* (CD ROM-Compact Disk Read Only Memory), *shinalar*, *modem* va boshqa qurilmalar. Sistema blokiga uning parallel (LPT) va ketma-ket (COM) portlari orqali ko'plab tashqi qurilmalarni ulash mumkin.

Mikroprotssessor. Mikroprotssessor kompyuterning amal bajaradigan qismi bo'lib, u ma'lumotlarni berilgan programma asosida qayta ishlaydi.



Mikroprotssessor

Xotira. Xotira kompyuterda programmalar va berilganlarni, amal natijalarini saqlaydigan qurilma. Xotiraning turlari ko'p: tezkor, doimiy, tashqi, kesh, video va boshqalar.

Tezkor xotira kompyuterning muhim qismi bo'lib, protssessor undan amallarni bajarish uchun programma, berilganlarni oladi va amalni bajarib, natijani yana unda saqlaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kompyuter o'chirilsa, tezkor xotirada saqlanayotgan programmalar va berilganlar yo'q bo'lib ketadi. Shuning uchun ularni qattiq diskda yoki disketalarda saqlab qolish kerak. Kompyuter ishlab turganda elektr tokini ogohlantirmasdan o'chirish, umuman aytganda, katta zarar keltirishi mumkin. Barcha turdagi xotiralar uchun muhim tushuncha uning hajmidir. Kompyuterlarda ma'lumot birligining eng kichik o'lchovi sifatida bayt qabul qilingan bo'lib, 1 bayt 8 bit (ikkili raqam)ga teng. O'z navbatida bayt bir simvolni (belgini) tasvirlaydi. Familiyangizni kompyuterga kiritish uchun familiyangizda nechta harf bo'lsa, u xotirada shuncha bayt joyni egallaydi. Xotira hajmi birligi sifatida kilobayt qabul qilingan va u K bilan belgilanadi. O'z navbatida bir kilobayt 1000 baytga teng. 1024 kilobayt esa 1 Mbayt (Megabayt)ga teng.

Xotiraning katta-kichikligiga qarab u yoki bu programmalar majmuini ishlata olish mumkin.

Doimiy xotira. Kompyuterlarda berilganlar o'nga avvaldan joylashtirilgan *doimiy xotira* (BIOS-Basic Input- Output System-kiritish chiqarishning asosiy sistemasi) mavjud. Bunday xotiradan faqat o'qish mumkin. Shuning uchun ham u ROM (Read Only Memory-faqat o'qish uchun) deb ataladi.

Kesh xotira. *Kesh xotira* kompyuter ishlash tezligini oshirish uchun ishlatiladi. U tezkor xotira va mikroprotssessor orasida joylashgan bo'lib, uning yordamida amallar bajarish tezkor xotira orqali bajariladigan amallardan ancha tez bajariladi. Shuning uchun kompyuter xotirasining ko'proq ishlatiladigan qismi nusxasini kesh xotirada saqlab turadi.

Videoxotira. Videoxotira monitor ekraniga video ma'lumotlarni (videotasvirlarni) saqlab turish uchun ishlatiladi. Shuni aytish lozimki, videotasvirlar (ayniqsa rangli) kompyuter xotirasida ko'p joy egallaydi.

Shina. Kompyuterda har bir qurilmaning ishini boshqaruvchi elektron sxemalar mavjud bo'lib, ular adapterlar (moslovchilar) deb ataladi. Barcha adapterlar mikroprotssessor va xotira orqali berilganlarni ayirboshlovchi magistral yo'l deb ataluvchi shinalar orqali bog'langan bo'ladi.

Sistema platasi kompyuterning asosiy platasi hisoblanib, o'nga BIOS, mikroprotsessor, tezkor xotira, kesh xotira, shinalar joylashtirilgan bo'ladi. Bundan tashqari, unda ba'zi bir qurilmalar, ishini boshqaruvchi elektron sxemalar, klaviatura, disk qurilmalari adapteri ham joylashgan bo'ladi.

Monitor. Monitor (display) kompyuterda matn va grafik ma'lumotlarni tasvirlash (ko'rish) uchun xizmat qiladi. Garchand tashqi ko'rinishidan u televizorga o'xshab ketsada, ular bajaradigan ishlari bilan keskin farq qiladilar. Monitorlar rangli va rangsiz bo'ladi. Kompyuter tarqatadigan nur umuman aytganda zararli, shuning uchun ham ba'zi kompyuterlarda past radiatsiya (Low radiation) so'zlarini uchratish mumkin. Lekin ularning inson organizmiga ta'siri tobora kamayib boradigan rusumlari yaratilmoqda. Buning misoli keyingi yillarda chiqarilgan 17-21 dyuymli SVGA (SUPER Video Graphic Adapter-katta video grafik adapter) monitorlarda nurlarning ta'sirini ancha kamaytirilishiga erishilganligini keltirish mumkin.

Tashqi qurilmalar

Tashqi qurilmalar quyidagi uskunalaridan iborat: Sichqoncha, printer, skaner, modem, strimer, grafik quruvchi va boshqalar.

Printer. Printerlar kompyuterda olingan natijalarni, programma va berilganlarni bosmaga chiqarish uchun ishlatiladi. Printer yordamida matnlarni, grafiklarni, rasmlarni rangli va rangsiz ko'rinishda bosmaga chiqarish mumkin. Printerlar asosan uch xil bo'ladi: *matritsali, oqimli va lazerli*.

Matritsali printerlar nuqtalar yordamida bosmaga chiqaradi. Shuning uchun ham ularni nuqta-matritsali printerlar deb ham atashadi. Bunday printerlar nisbatan sekin ishlaydi, chop qilish sifati uncha yaxshi emas va chop qilish tezligi ham katta emas. Ular keng (A3) va oddiy (A4) chop etish formatiga ega. 24, 48 ignali (nuqtali) printerlar mavjud bo'lib, albatta ignalar soni ko'pligi yaxshi ekanligi tushunarlidir.

Oqimli printerlar. Bunday printerlar maxsus (rangli va rangsiz) siyohlarni purkash yo'li bilan ishlagani uchun ular oqimli deb ataladi. Bu printerlarning turli ranglarda chop qilish sifati tiniq va ravshan bo'lib, ularning-kamchiligi siyohining tez tamom bo'lib qolishi va uning nozikligidir. Bu printerlar matnlarni nisbatan tez, grafik tasvirlarni esa sekinroq chop etadi.

Lazer printerlar. Lazer printerlar ham sifati, ham tezligi jihatidan eng yaxshi printer hisoblanadi. Ular rangli va rangsiz bo'ladi.



Lazerli printer


Modem. Modem modulyatsiya, demodulyatsiya so'zlaridan olingan bo'lib, uzluksiz signallarni raqamli (modulyatsiya) va raqamli ma'lumotlarni uzluksiz (demodulyatsiya) signalga almashtirib beradigan qurilmadir. Uning asosiy vazifasi kompyuterlararo aloqani o'rnatishdir. U o'zining kommunikatsion programmalariga ega bo'lib, bu programmalar yordamida uzoq masofalarga ma'lumotlarni uzatishi va qabul qilishi mumkin. Modem ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Hozirda ko'p kompyuterlar modem bilan birga sotilmoqda.



Tashqi faks modem



Ichki modemi



Skaner

Skaner-matn, grafika, tasvirlarni kompyuterga kiritish avtomatlashtirish uchun xizmat qiluvchi qurilma. U hozir asosan rangli ko'rinishda chiqarilayapti. Uning andozasi sifatida HP (Hewlett Packard) firmasi ishlab chiqaradigan HP Scanjet rusumli skanerlar qabul qilingan.

Lazerli (kompakt) disk. CD ROM (Compact Disk Read Only Memory – faqat o'qish uchun lazerli disk). Keyingi paytda bu qurilma juda muhim rol o'ynamoqda. Uning asosiy sababi o'nga 650 Mbayt hajmdagi ma'lumotni sig'ishi bo'lsa, ikkinchi tomondan uni ishlatishda qulayligi bilan alohida e'tiborga loyiq. Uning CD ROM va CD Writer(yozuvchi)




ko'rinishdagilari mavjud bo'lib, birinchisi faqat o'qish uchun mo'ljallangan bo'lsa, ikkinchisi ma'lumot va programmalarni yozish uchun keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, hujjatlarning elektron versiyasini bunday ma'lumot yuritgichi orqali ayirboshlash dolzarb masala bo'lib qoldi.



CD-ROM disk qurilmasiga qo'yilishi

CD ROM ning muhim ko'rsatkichlaridan biri uning ma'lumot ayirboshlash tezligidir. Hozirda ko'proq 48 tezlikli lazer disklar ishlatilmoqda.

Disketa. Ma'lumotlarni, programmalarni doimiy saqlash, ayirboshlash maqsadida disketalar ishlatiladi. O'nga FDD (Floppy Disk Driver – egiluvchan disk qurilmasi) yordamida ma'lumotlar va programmlar yoziladi va undan o'qiladi. Hozirda HD (Higy density-yuqori zichlik) asosan hajmi 1,44 yoki o'ta yuqori 2,88 Mbaytga teng bo'lgani keng ishlatilmoqda. Ayni paytda 120 Mbayt sig'imli Floppy disketalar ham ishlab chiqarilish arafasidadir.



3.5 li disketa

Klaviatura va sichqoncha

Klaviatura va sichqoncha ma'lum ma'noda bir-birining o'rnini bosadigan, ma'lumotlarni kiritadigan va kompyuter bilan muloqot qilish vazifasini o'taydigan qurilmalardirlar. Ularsiz kompyuterda xususan, operatsion sistemasida ishlab bo'lmaydi. Ular yordamida siz operatsion sistemaga va uning boshqaruvi ostida ishlaydigan programmalarga buyruqlar shuningdek, bu qurilmalar yordamida programmalarga kerak bo'lgan ma'lumotlar kiritiladi.



Sichqoncha odatda ikki yoki uch tugmachali bo'ladi: chap, o'ng va o'rta. Chap va o'ng tugmachalar programma asosida almashtirilishi mumkin. Odatda chap tugmacha yordamida asosiy amallar (ajratish, surish, bajarish va h.k.) bajariladi. O'ng tugmacha kontekst menyu deb ataluvchi amallarni bajarish uchun xizmat qiladi. Kontekst menyuning vazifasi joriy holatda u yoki bu amalni tezroq bajarish bilan bog'liq. O'rta tugmacha hozirda xususan, varaqlash (Page Down, Page Up amaliga o'xshab) maqsadlari uchun qulay.

Klaviatura. Klaviatura 101-105 tugmachalardan iborat.



O'z vazifalariga ko'ra tugmachalar beshta guruhga bo'linadi:

1. Harflar va sonlarni kiritadigan tugmachalar. Ular oddiy yozuv mashinkalarning tugmachalariga o'xshaydi.

2. Boshqaruvga oid tugmachalar.

3. Funktsional yoki amal tugmachalar.

4. Kichik sonlar kiritadigan tugmachalar.

5. Maxsus belgilardan iborat tugmachalar.

Boshqarishga oid tugmachalar har xil boshqarish vazifalarini bajaradi. Ayrim tugmachalar, masalan: CAPSLOCK, NUMLOCK va SCROLL LOCK tugmachalarining ishlash vazifasini o'zgartirib turadi. SHIFT, CTRL, ALT tugmachalari boshqa tugmachalar bilan birga ishlaydi. Masalan, CTRL Q ALT Q F degani CTRL, ALT va F tugmachalarini birdaniga bosishni bildiradi.

F1 dan F12 gacha bo'lgan tugmachalar funktsional tugmachalar deb nomlanadi. Dastur tuzilishiga qarab, ushbu tugmachalar har xil vazifalarni bajarishi mumkin. Bular 12 ta bo'lishiga qaramasdan, ko'pincha F1 dan F10 gachasi ishlatiladi. Odatda F1 tugmachai yordamchi ma'lumotlarni olish uchun xizmat qiladi (Spravochnik). Num Lock (sonlarni saqlash) - sonlar kiritishning kichik klaviaturasini sonni kiritishga yoki kursorni boshqarishga moslaydi. Sonlarni kiritish tugmachalari ikki rejimda ishlashi mumkin:

1) sonlarni kiritganda,

2) kursorni boshqarishda.

Ikki holatning biridan ikkinchisiga o'tishni Num Lock (mahkamlash bilan) yoki Shift tugmachani (mahkamlash kerak emas) bajaradi. Bunda Caps Lock tugmachai sonlarni kiritish klaviaturasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Sonlarni kiritish paytida sonlarni kiritish klaviaturasini kal kulyatorning klaviaturasiga o'xshaydi. Sonlarni va arifmetik a allar belgilarini kiritish uchun qulaylik yaratadi. Sonlarni kiritgan paytda Num Lock chirog'i yonib turishi kerak, agarda Num Lockni ko'rsatuvchi chiroq o'chgan bo'lsa, ushbu kichik klaviatura bilan kursorni boshqarish mumkin.

Ctrl (*Control* - boshqarish) - boshqa tugmacha bilan birga bosilganda, o'sha tugmachaning vazifasi o'zgaradi, ALT (*Alternative* - o'zgartiruvchi) - bu tugmacha ham boshqa tugmachalar bilan birga bosilganda, o'sha tugmachaning ish vazifasini o'zgartiradi.

Print Screen (ekrandagi chop etish) - ushbu tugmacha ekranda bo'lgan ma'lumotni printeriga chiqarib beradi.

PAUSE (vaqtinchalik to'xtash) - ushbu tugmacha bosilganda kompyuter o'z ishini vaqtincha to'xtatadi.

TAB (tabulyatsiya so'zidan) - faqat pastdagi registrda ishlaydi va gap matn, hujjatlar haqida ketganda, kursorni o'ng tomonga, navbatdagi maxsus ko'rsatilgan (belgilangan) nuqtaga (pozitsiyaga) suradi. Bu tugmachaning qulayligi shundaki, uning yordami bilan jadvallar tuzish oson va matnni yozganda ham belgilangan pozitsiyadan boshlab terish mumkin. Tugmachalarni yuqori registrda bosganda, kursorni chap tomonga, belgilangan pozitsiyaga surish mumkin.

BackSpace (Orqaga qaytish) - qaytarish tugmachai. Bu tugmacha yordamida, matn terish paytida, ekrandagi kursordan chap tomondagi xato terilgan belgilarni o'chirish mumkin. Kursorning o'zi esa bitta belgi chap tomonga suriladi.

Enter (kiritish) - kiritish tugmachai. Matn terish paytida ushbu tugmacha bosilsa, kursor yangi abzatsga (satrga) o'tadi.

Caps Lock (katta yoki kichik harflarga o'tish tugmachai) - yuqori registrga o'tish imkonini yaratib beradi. Haqiqatda esa ushbu tugmacha faqat harflar terish tugmachalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, katta harflar kiritish imkonini yaratib beradi. Bu tugmachani bosib ushlab turish kerak emas. Ishlovchiga qulaylik yaratish maqsadida klaviaturaning o'ng burchagida yonib turadigan indikatorlar joylashgan. Bu indikatorlar rejimni ko'p vaqt davomida saqlab turadigan tugmachalar bilan bog'langan. Shularning ichida bittasi Caps Lock ga tegishli.

Scroll Lock (surishni saqlaydi) - bu tugmacha yordamida kursorni harakatga keltirmoqchi bo'lsangiz, kursor ekranga sakraydi. Bu tugmacha ham o'z holatini mustahkamlash (fiksatsiya) bilan bajaradi.

Shift (surish) - vaqtinchalik yuqori registrdan pastki registrga, yoki aksincha, pastki registrdan yuqori registrga o'tish imkonini beradi. Hammasi Caps Lock tugmachaining holati bilan bog'langan. Bu tugmachaning xizmati vaqtinchalik bo'lganligi sababli, boshqa tugmachalarning xizmatini o'zgartirish kerak bo'lsa, ularni bosish paytida Shift tugmachai vaqtinchalik bosib ushlab turiladi.



- sichqonchaning odatda uchta tugmachasi bo'ladi. Ikkita va bitta tugmachaga ega sichqonlar ham uchrab turadi. Ko'pincha, chap tugmacha ishlatiladi. Sichqoncha bilan ishlash operatsiyalariga sichqoncha tugmachasini (odatda chap to'g'rasini) bitta bosish, ikkita bosish, yoki surish kiradi.

Sichqoncha birinchi navbatda ko'rsatish vazifasini bajaradi. Agarda ko'rsatgandan keyin, chap tugmachacha bosilsa, o'sha programmi ishlash uchun tayyor bo'lib turadi. Ko'rsatilgan ob'ekt ustida, sichqonchaning tugmachasi ikki marta bosilsa, ko'rsatilgan programma birdan ishga tushib ketadi. Shunday qilib, sichqonchaning chap tugmachasini ikki marta ketma-ket bossangiz, bu operatsiya bir marta chap tugmachani bosib, keyin Enter bosilganiga teng bo'ladi. Sichqonchani doimo yaxshi ish holatida saqlash uchun uning orqa tomonida joylashgan sharrchasini spirt yoki aroq bilan vaqt-vaqti bilan artib turishni tavsiya etamiz. Ekranda ko'rsatilgan ob'ektni surish yoki ko'chirish. Ekranda ko'rsatilgan ob'ektni topib, chap tugmacha bosiladi va tugmachani qo'yib yubormasdan, ob'ektni yangi joyga suriladi va sichqoncha tugmachasi qo'yib yuboriladi. Windows muhitida ishlayotganda ekrandagi ob'ektlarni ham chap, ham o'ng tomonda joylashgan tugmachalar bilan ko'chirish mumkin.

Chap tugmacha bosilganda, mo'ljallash bo'ladi, o'ng tugmacha bosilganda esa aniq vazifa berish kerak bo'ladi.

Sichqoncha yordamida quyidagi asosiy harakatni bajarish mumkin:

Point-ko'rsatkichni ekranning kerakli joyiga ko'chirish;

Slick-sichqoncha tugmachasini bosib darhol qo'yib yuborish;

Double click- sichqoncha tugmachasini ikki marta tez bosish;

Select-biror ob'ektni tanlash.

Tanlab olingan tasvir, matn qismi yoki grafik simvollarni boshqa joyga ko'chirish (Drag and Drop texnologiyasi) mumkin. Buning uchun tanlab olingan ob'ekt ustiga ko'rsatkichni olib borib, sichqoncha tugmachasi bosiladi va ob'ektni kerakli joyga ko'chiriladi, so'ngra sichqoncha tugmachasi qo'yib yuboriladi.

Windowsda sonlarni kiritish klaviaturasini sichqoncha o'rnida ishlatish mumkin. Bunday holat har xil sabablarga ko'ra, sichqoncha ishlaymay qolganda yuz berishi mumkin.

Nazariy savollar:

1. Axborot nima?
2. Axborot texnologiyasi nima?
3. Jamiyatda informatika kanday urin tutadi?
4. Informatikaning hozirgi bosqichlaridagi vazifalari?
5. Axborot, Axboriy jarayonlar.
6. Axborot texnologiyasini belgilovchi ichki omillar.
7. Axborotni uzatish usullari.

8. Axborotlashtirish, Axborotlashgan jamiyat.
9. Axborot texnologiyasi fani, modellari.
10. Axborot texnologiyasidan foydalanish usullari.
11. Kompyuterning dasutriy ta`minoti asosiy qismi.
12. Shaxsiy kompyuterlarning dasturiy ta`minoti tug`risida ma`lumot bering.
13. Tashqi qurilmalarni o`rnatish qanday amalga oshiriladi.
14. Modem vazifasi qanday?

Amaliy mashg`ulotlar uchun topshiriqlar

Topshiriq 1:

1. Axborot jarayonlarga misollar toping va ularni tushintirib bering .
2. Kompyuter tuzilishi va ishlatilishi xaqida ma`lumot to`plash
3. Ma`lumotlarga ishlov beruvchi axborot texnologiyalariga mos bo`lgan masalalarni yechishni ko`rsating.
4. Axborot texnologiyalarining ta`minlovchi dasturiy vositalarga misollar keltiring va amalda qo`llang.

Topshiriq 2:

1. Klaviaturada amallar bajarishni o`rganish.
2. Matn muharririda klaviaturadan foydalanib o`z tarjimai holingizni kiriting
3. Kiritilgan tarjimai holni boshqaruvga oid klavishalardan foydalanib tahrirlang

Foydalanish uchun adabiyotlar ro`yhati:

1. S.I.Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent,1998 ,224 bet
2. Yu.Shafrin Osnovo` komp yuternoy texnologii. Moskva 1997.
3. M. Aripov, Muxammadiev., "Informatika, informatsion texnologiyalari ",Uzbekiston milliy kutubxonasi, 2004y, 276 bet
4. Aripov M., Xaydarov A., «Informatika», T., O`zMU, 2002 yil , 600 bet

Amaliy mashg`ulot № 2

ALGORITMLASH ASOSLARI

**MASHG`ULOTNING MAQSADI:** Qo`yilgan masalani algoritmini tuzishni o`rganish, tuzilgan algoritm asosida blik shema tuzish

**MASHG`ULOTNING JIHOZI:** Ko`rgazmali material: proyektor, daftar, ruchka, doska, bo`r

MASHG`ULOT O`TISH VOSITASI: Pentium komp`yuterlari bilan jihozlangan kompyuter sinfi.

MASHG`ULOTNING BORISHI:

a) **Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.**

b) **Yo`qlama qilish.**

v) **Avvalgi mashg`ulotlarda o`tilganlarni takrorlash bo`yicha suhbat o`tkazish:**

Qurilmalar, ularning vazifalari, kompyuterlarni o`chirish va yoqish, turli amaliy dasturlar haqida savol-javoblar.

g) **Yangi mavzuning bayoni:** Tugmachalar vazifalarini ko`rsatuvchi ko`rgazmali qurol yordamida bayon etiladi.

d) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

Amaliy topshiriqning qisqacha bayoni:

Algoritm so'zi va tushunchasi IX asrda yashab ijod etgan buyuk bobokologimiz Muxammad al-Xorazmiy nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning arifmetikaga bag'ishlangan "Al-Jabr va al-muqobala" nomli asarining dastlabki betidagi "Dediki Al Xorazmiy" degan jumlaridan kelib chiqqan.

Al-Xorazmiy birinchi bo'lib o'nlik sanoq sistemasining printsiplarini va unda turli amallar bajarish qoidalarini asoslab berdi. Bu esa hisoblash ishlarini ixchamlashtirish va osonlashtirish imkonini yaratadi. Chunki bu bilan o'sha davrda qo'llanib kelingan Rim raqamlari va sonlarni so'z orqali yozib bajarishdagi noqulayliklar bartaraf etildi.

Dastlab algoritm deyilganda o'nlik sanoq sistemasidagi sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarish qoidalari tushunib kelingan.

Al-Xorazmiyning ilmiy asarlari fanga algoritm tushunchasining kiritilishiga sabab bo'ldi.

Algoritm nima? Umuman olganda uni aniq ta'riflash mushkul. Lekin algoritmning mohiyatini aniq va qat'iyroq tushuntirishga harakat qilamiz.

Algoritm deganda biror maqsadga erishishga yoki qandaydir masalani yechishga qaratilgan buyruqlarning aniq, tushunarli, chekli hamda to'liq tizimi tushuniladi.

Algoritmga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: algoritm deb aniq natijaga olib keladigan amallarning cheklangan ketma-ketligiga aytiladi.

Algoritmalar-bu bilimlar ustida fikrlash va yetkazib berishdan iborat. Haqiqatan ham kimdir qandaydir masalani yechishni o'ylab topib va uni boshqalarga aytmoqchi bo'lsa, u holda u o'ylab topgan yechimini shunday tasvirlashi kerakki, natijada boshqalar ham uni tushunsin, hamda shu tasvirga ko'ra boshqalar ham masalani to'g'ri yechishsin. Shuning uchun tasvir bir necha talablarga bo'ysinishi kerak.

Agar yechimning tasviri aniq bo'lmasa, ya'ni mujmal bo'lsa, u holda shu tasvirga asosan boshqa javobni olish mumkin. Chunki, har kim masala yechimining tasvirini noaniq mujmal joyini o'zicha aniqlashtirishi mumkin. Bunday tasvirni algoritm deb bo'lmaydi. Algoritmarga misol sifatida taomlar tayyorlash retseptlarini, formulalarni, turli avtomatik qurilmalarni ishlatish yo'lini, mexanik yoki elektron o'yinchoqlarni ishlatish bo'yicha yo'riqnomalarni, ko'cha harakati qoidalarini keltirish mumkin. Algoritmga ba'zi bir misollar keltiramiz:

1. Choy damlash algoritmi
 - 1) choynak qaynagan suv bilan chayilsin
 - 2) bir choy qoshiq miqdoridagi quruq choy choynakka solinsin.
 - 3) Choynakka qaynagan suv quyilsin
 - 4) Choynakning qopqog'i yopilsin
 - 5) Choynak ustiga sochiq yopib uch daqiqa tindirilsin

Har kuni bir necha martadan bajaradigan bu ishimiz ham algoritmga misol bo'la oladi.

Algoritming asosiy xossalari quyidagilardan iborat:

1. **Diskretlilik.** Bu xossaning mazmuni-algoritmnlarni doimo chekli qadamlardan iborat qilib bo'laklash imkoniyati mavjudligidadir. Boshqacha aytganda, uni chekli sondagi oddiy ko'rsatmalar ketma-ketligi shaklida ifodalash mumkin. Algoritming bu xossassi yuqorida keltirilgan hamma misollarda yaqqol ko'rinib turibdi. Agar kuzatilayotgan jarayonni chekli qadamlardan iborat qilib bo'laklay olmasak, u holda uni algoritm deb bo'lmaydi.
2. **Tushunarlilik.** Algoritmining ijrochisi hamma vaqt inson bo'lavermaydi. Choy damlashni yoki boshqa ishlarni bajarishni faqat odamga emas, balki robotga ham buyurish mumkin. Ijrochiga tavsiya etilayotgan ko'rsatmalar uning uchun tushunarli bo'lishi kerak, aks holda ijrochi oddiygina amalni ham bajara olmaydi. Bundan tashqari, ijrochi har qanday amalni bajara olmasligi ham mumkin. Har bir ijrochining bjara olishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar yoki buyruqlar birikmasi mavjud bo'lib, u ijrochining ko'rsatmalar tizimi deyiladi. Shuning uchun ijrochi uchun berilayotgan har bir ko'rsatma ijrochining ko'rsatmalar tizimiga tegishli bo'lishi kerak.
3. **Aniqlik.** Ijrochiga berilayotgan ko'rsatmalar aniq mazmunda bo'lishi kerak. Chunki, ko'rsatmadagi noaniqliklar mo'ljaldagi maqsadga erishishga olib kelmaydi.
4. **Ommaviylik.** Har bir algoritm mazmuniga ko'ra bir turdagi masalalarning barchasi uchun ham o'rinli bo'lishi kerak. Ya'ni, masaladagi boshlang'ich ma'lumotlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar algoritm shu xildagi har qanday masalani yechishga yaroqlidir.

5. **Natijaviylik.** Har bir algoritm chekli sondagi qadamlardan keyin albatta natija berishi shart. Bajariladigan amallar ko'p bo'lsa ham baribir natijaga olib kelishi kerak. Chekli qadamdan keyin qo'yilgan masala yechimga ega emasligini aniqlash ham natija hisoblanadi. Agar ko'rilayotgan jarayon cheksiz davom etib natija bermasa, uni algoritm deb ayta olmaymiz.

Algoritmning berilish usullari xilma-xildir. Hozir ularning eng ko'p uchraydiganlari bilan tanishamiz. Algoritmnlarni quyidagi ko'rinishlarda tasvirlash mumkin.

1. Algoritmning so'z orqali berilishi. Bunda ijrochi uchun beriladigan har bir ko'rsatma so'zlar orqali buyruq mazmunida beriladi.
2. Algoritmning formulalar yordamida berilishi. Algoritmning formulalar bilan berilish usulidan matematika, fizika, kimyo va boshqa aniq fanlarni o'rganishda ko'proq foydalaniladi.
3. Algoritmning jadval ko'rinishida berilishi. Algoritmning bu ko'rinishida tasvirlanishidan ham ko'p foydalaniladi.
4. Algoritmning dastur shaklida ifodalanishi. Millionlab kompyuterlarning keng tarqalib ketishi algoritmnlarning dastur tarzidagi tasvirining keng ommalashib ketishiga katta turtki beradi. Sababi shundaki, kompyuterlar doimo dasturlar yordamida boshqariladi.
5. Algoritmnlarning grafik (blok-sxema) shaklida tasvirlanishi. Algoritmning blok-sxema ko'rinishidagi tasvirida geometrik figuralar shaklidagi oddiy elementlardan foydalaniladi.

Algoritmnlarning turlari. Algoritmnlarni asosan 3 turga bo'lish mumkin:

1. Chiziqli algoritmnlar;
2. Tarmoqlanuvchi algoritmnlar;
3. Takrorlanuvchi algoritmnlar.

Chiziqli algoritmnlarda asosan hech qanday shart tekshirilmaydi va jaaryonlar tartib bilan ketma-ket bajariladi. Demak, chiziqli algoritmnlar sodda hisoblashlar, amallar ketma-ketligidir.

Biror shartning bajarilishi bilan bog'liq ravishda tuziladigan algoritmnlarga **tarmoqlanuvchi algoritmnlar** deyiladi. Tarmoqlanuvchi algoritmnlar hisoblashlar ketma-ketligini aniqlaydigan shartlarni o'z ichiga oladi.

Takrorlanuvchi algoritmnlar deb shundy algoritmnlarga aytiladiki, unda bir yoki bir necha amallar ketma-ketligi bir necha marta takrorlanadi, bu ketma-ketlik tarmoqlardan iborat bo'lishi ham mumkin.

Kompyuter ishlashi uchun zaruriy shart-programmalarning mavjudligidir. Programma ta'minoti 2 ta guruhdan iborat:

- sistemaning ishlashi bilan bog'liq sistema tizim programmalari;
- amaliy programmlar.

Tizim programmlari kompyuterning ishlashi uchun zarur programmlar bo'lib, u kompyuterning ishlashini boshqaradi, uning turli qurilmalari orasida muloqotni tashkil qiladi. Kompyuterdan foydalanishni osonlashtiruvchi sistema programmlarining yadrosi operatsion sistemalardir.

Amaliy programmlar predmet sohadan olingan alohida masalalar va ularning to'plamini yechish uchun qaratilgan bo'lib, amaliy masalalarni yechish uchun mo'ljallangan. Bunday programmlar majmui amaliy programmlar paketi (APP) deb ataladi. Programmlar odatda magnit yuritgichlarda joylashgan bo'ladi. Ammo operatsion sistemalar va u bilan bog'liq programmlar ancha katta hajmga ega bo'lgani tufayli keyingi paytlarda lazer disklariga yozilmoqda.

Ba'zi bir sistemali programmlar, masalan, kiritish-chiqarishning asosiy sistema programmlari deb ataladi va to'g'ridan-to'g'ri kompyuterning doimiy xotirasida saqlovchi qurilmasiga yozilgan bo'ladi

Nazariy savollar

1. Algoritm nima?
2. Algoritm nima uchun kerak?
3. Algoritm turlarini aytib bering.
4. Algoritm xossalari.
5. Algoritmga misollar keltiring

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar

Topshiriq 1:

1. Ixtiyoriy aniq masala tanlang

2. Soʻz orqali ifodalovchi algoritm tuzing
3. Formula orqali ifodalovchi algoritm tuzing
4. Jadval orqali ifodalovchi algoritm tuzing
5. Dastur orqali tasvirlangan algoritm tuzing
6. Blok-sxema shaklida algoritm tuzing

Topshiriq 2:

1. Chiziqli, takrorlanuvchi va tarmoqlanuvchi algoritmlarga misollar keltiring
2. Chiziqli algoritm tuzing va tushuntirib bering
3. Takrorlanuvchi algoritm tuzing va tushuntirib bering
4. Tarmoqlanuvchi algoritm tuzing va tushuntirib bering

Foydalanish uchun adabiyotlar ruyhati:

1. S.I.Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent, 1998, 224 bet
2. Yu. Shafrin Osnovoʻ komp yuternoy texnologii. Moskva 1997.
3. M. Aripov, Muxammadiev., "Informatika, informatsion texnologiyalari ", Uzbekiston milliy kutubxonasi, 2004y, 276 bet
4. Aripov M., Xaydarov A., «Informatika», T., OʻzMU, 2002 yil, 600 bet

Amaliy mashgʻulot № 3

Mavzu: Operatsion sistema. Fayllar va kataloglar. MS DOS va Windows operatsion sistemalari, buyruqlari.

MASHGʻULOTNING MAQSADI: Operatsion sistema, fayl va kataloglar hamda MS DOS, Windows haqida tushuncha berish. MS DOS operatsion tizimining buyruqlarini tushuntirish, matn fayl xosil qilish, papka xosil qilish, nomini oʻzgartirish, nusxasini olish, qayta nomlash, fayllarni qoʻshish va xokazo ishlarni bajarish

MASHGʻULOTNING JIHOZI: Koʻrgazmali material:

- a) Shaxsiy kompyuter qurilmalari.
- b) MS DOS ning asosiy buyruqlari

MASHGʻULOT OʻTISH VOSITASI: Pentium kompyuterlari bilan jihozlangan kompyuter sinfi.

MASHGʻULOTNING BORISHI:

- a) **Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.**
- b) **Yoʻqlama qilish.**

v) **Avvalgi mashgʻulotlarda oʻtilganlarni takrorlash boʻyicha suhbat oʻtkazish:** OT haqida koʻrgazmali quroldan foydalanish. Klaviaturadan foydalanish qoidasi yordamida yangi mavzuni tushuntirish, kompyuterlarni oʻchirish va yoqish, turli amaliy dasturlar haqida savol-javoblar.

g) **Yangi mavzuning bayoni:** MS DOS operatsion tizimida ishlash jarayonini tashkil etish, fayl va katalog tushunchasiga ega boʻlish, asosiy buyruqlari bilan tanishish

d) **Kompyuter xonasida mashgʻulot olib borish.** Oʻtilgan mavzu boʻyicha mashq bajarish.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni oʻrnatilgan tartib asosida oʻchirish.

Amaliy topshiriqning qisqacha bayoni:

Operatsion sistema (OS) kompyuter bilan foydalanuvchi o'rtasida muloqotni o'rnatadi kompyuter asosiy qurilma manbalarini, qo'shimcha qurilma-ning ishini boshqaradi.

OS programalarni operativ xotiraga ko'chiradi dasturning talablarini bajarib, ishini ta'minlaydi. Dastur vazifasini bajarib bo'lgandan keyin operativ xotirani undan tozalaydi, ya'ni foydalanuvchi ilashi uchun operativ xotirada keng yaratadi.

Bu buyruqlar asosida foydalanuvchi diskni nomlash, fayllar nusxasini ko'chirish, ekranda kataloglar ketma - ketligini olish, ixtiyoriy dasturlar, printer, displey bilan bevosita ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirda quyidagi OS lar mavjud: MS DOS, UNIX, Windows va h.k

MS DOS OC -tarkibi

MS DOS OC sistemasi quyidagi qismlardan tashkil topadi:

-BIOS (Basic Input - Output System) kompyuterning doimiy xotirasida joylashgan. Uning vazifasi kiritish - chiqarish bilan bog'liq bo'lgan operatsion sistemaning eng sodda va universal xizmatlarini bajarishdan iborat. Bu sistema kompyuter yoqilganda,

uning xotirasi va qurilmalarni ishlashini tekshiruvchi testni ham o'z ichida saqlaydi. Bundan tashqari, unda OS yuklovchisini chiqaruvchi dastur joylashadi.

-OS yuklovchisida juda qisqa dastur bo'lib, u MS DOS li disketaning birinchi sektorida joylashadi va uning vazifasi MS DOS ni qolgan 2 modulini o'qishdan iborat.

-IO.SYS (INPUT - OUTPUT) BIOS ning xotiradagi davomi xisoblanadi.

-MS DOS.SYS DOS ning yuqori darajadagi vazifalarini bajaradi.

-MS DOS ning buyruq protsessori foydalanuvchi kiritgan buyruqlarni qayta ishlaydi. Buyruq protsessori OS yuklanayotgan diskning COMMAND.COM faylida joylashadi. Foydalanuvchi "ichki" deb ataluvchi ba'za buyruqlarini ya'ni type, dir, copy kabilar buyruq protsessorlari o'zi bajaradi. Qolgan tashqi buyruqlarni bajarish uchun mos dasturni qidiradi, uni xotiraga ko'chirib, boshqarishni o'nga uzatadi.

-MS DOS ning tashqi buyruqlari - OS bilan birgalikda yuklanadigan alohida fayllardagi dasturlardir, masalan, format.

-Drayver qurilmalari MS DOS ning kiritish - chiqarish sistemasini to'ldiruvchi va yangi qurilmalarning ishini ta'minlovchi maxsus dasturdir. Masalan, drayver yordamida kompyuter xoti-rasining qismi bo'lgan "elektron disk" bilan ishlash imkoniyati tug'iladi. Drayverlar nomi CONFIG.SYS faylida ko'rsatiladi.

MS DOS ning boshlang'ich yuklanishi.

MS DOS ning ta'minoti quyidagi xollarda avtomatik tarzda bajariladi :

-kompyuter yoqilganda,

-"Reset" tugmachasi bosilganda (bu tugmacha ba'zi bir modellarda bo'lmasligi mumkin).

-[Ctrl], [Alt], [Del] tugmachalar birga bosilganda.

Qoidaga ko'ra OS qattiq diskda ta'minlovchi firma tomonidan yozilgan bo'ladi.

Sistema yuklanishi bilan kompyuter doimiy xotirasidagi qurilmalar tekshiriladi. Agar xatolik bo'lsa, xato kodi beriladi. Xatolik murakkab bo'lmasa, "F1" tugmachasi bosiladi. Aks holda kompyuterni maxsus texnik mutaxassislarga ko'rsatish lozim.

OS yuklovchi dastursi o'qilgandan keyin bu dastur kompyuter xotirasi OS modullari IO.SYS va MS DOS.SYS ni ko'chirib, ularga boshqaruvni topshiradi. So'ngra CONFIG.SYS-sistema konfiguratsiyasini ko'rsatuvchi fayl, unda ko'rsatilgan drayverlar o'qilib, OS parametrlari o'rnatiladi. Agarda CONFIG.SYS bo'lmasa, odatdagi parametrlar o'rnatiladi. Bundan keyin COMMAND.COM boshqaruvchi protsessor o'qilib, boshqarish o'nga beriladi va AUTOEXEC.BAT bajariladi. Bu faylda kompyuter yoqilganda bajariladigan buyruq va dasturlar ko'rsatiladi. Masalan, rus harflar ishini ta'minlovchi dastur.

Shu bilan kompyuterni yuklash jarayoni tugaydi va MS DOS buyruq berishga taklif qiladi.

Fayllar va kataloglar

Fayl nima?

Fayl - diskning ma'lum nom bilan ataluvchi sohasi bo'lib, unda ma'lum ma'lumotlar saqlanadi. Masalan, dastur va xujat matnlari bajarilishi mumkin bo'lgan dasturlar va hokazolar. Fayllar 2 xil bo'ladi: matnli, ikkilik tizimidagi. Matnli fayllar foydalanuvchi o'qishi uchun mo'ljallangan. Xar bir fayl nomi kengaytirgichga ega. Nom 1 dan 8 gacha, kengaytgichi 1 dan 3 tagacha belgiga ega bo'lishi mumkin. Nom va kengaytgich nuqta bilan ajratiladi.

Masalan:

command.com

autoexec.bat

letter.txt

Nom va kengaytgich bosh va kichik lotin harflaridan, raqamlardan va _ \$ # @ ! % & () {} ` ~ ^ belgilaridan iborat bo'lish mumkin. Kengaytgich bo'lishi shart emas. Ammo kengaytgich, qoidaga ko'ra, faylning mazmunini tasvirlaydi va shu bilan foydalanuvchiga qulaylik yaratiladi. Ko'pchilik programmalar kengaytgichni o'rnatadilar va kengaytgichga qarab faylni qaysi dastur hosil qilganini aynqlash mumkin.

Masalan :

- .com, .exe** - bajarishga tayyor dasturlar;
- .bat**-buyruq fayllari;
- .pas**-Paskaldagi dastur;
- .for**-Fortrandagi dastur;
- .c**-SI dagi dastur;
- .asm**-Assemblerdagi dastur;
- .bak**-faylni o'zgarishdan avvalgi nusxasi;
- .bas**-Beysikdagi dastur;
- .cob**-Kaboldagi dastur;
- .lib**-dasturlar kutubxonasiga tegishli fayl;
- .txt, .doc**- matnli fayl.

Agar faylni o'zgartirish jarayonida xataga yo'l qo'yilgan yoki fayl o'chirilgan bo'lsa, .bak kengaytgichli fayl yordamida uni tiklash mumkin.

Katalog

Katalog- fayl nomlari, ularning xajmi, yozilish vaqti haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi diskdagi maxsus joy. Agarda katalogda faylning nomi bo'lsa, u holda fayl shu katalogda joylashgan bo'ladi. Xar bir magnit diskda kataloglar soni bir nechta bo'lishi mumkin. Xar bir katalog nomga ega. Katalog nom fayl nomi kabi yozilish tartibiga ega. Katalog boshqa katalogda qayd qilinishi mumkin. Agar X katalogi Y katalogida qayd qilingan bo'lsa, u holda X - ichki katalog, Y-tashqi katalog hisoblanadi. Xar bir magnitli diskda bosh yoki tub katalog bo'ladi, unda fayllar va 1-bosqichdagi ichki katalog qayd etiladi. 1- bosqichdagi kataloglarda fayllar va 2-bosqich va kataloglari qayd etiladi va hokazo. Natijada magnitli diskda kataloglar daraxtsimon tuzilishi hosil bo'ladi

Joriy disk va katalog

-Joriy disk bu Siz hu daqiqada ishlayotgan disdir. MS DOS foydalanuvchi so'rayotgan fayllarni joriy diskda qidiradi. MS DOS ning maxsus buyruqlarri joriy diskni o'zgartiradi.

-Foydalanuvchi ishlayotgan lahzadan katalog joriy katalog deb ataladi. Agar MS DOS buyruqsida faylning nomi ko'rsatilsa, u holda joriy katalogda qidiriladi yoki tashkil qilinadi.

Faylga yo'l

Agarda Sizga zarur bo'lagan fayl joriy katalogda bo'lmasa, u holda faylning qaysi katalogda joylashganini ko'rsatishingiz lozim. Buning uchun faylgacha bo'lgan yo'l ko'rsatiladi.

-Yo'l - "/"belgi bilan ajratilgan kataloglar yoki "." belgilar ketma-ketligidir. Bu yo'l tub yoki joriy katalogdan kerakli fayl joylashgan katalogacha bo'lgan marshrutni ko'rsatadi. Agar yo'l «/»bilan boshlansa, marshrut tub katalogdan, "." bilan boshlansa, oldingi bosqichdagi katalogdan, aks holda joriy katalogda hisoblanadi.

Diskninig nomlanishi

Shaxsiy kompyuter turli magnit disklar bilan ishlaydigan maxsus qurilmalrga egaligi yuqorida ta'kidlangan edi. Disketalar bilan ishlashni ta'minlaydigan qurilmalar A: va V: bilan nomlanadi. Qattiq disk S: bilan nomlanadi.

Masalan: Shaxsiy kompyuterlar 2 ta disketalar bilan ishlovchi A:,V: qurilmalarga va qattiq disk S:ga ega bo'lishi mumkin. Qulaylik uchun odatda S diski qismlarga bo'linadi. Ular D,E,F va hokazolar bilan nomlanadi.

Faylning to'liq nomi. Faylning to'liq nomi quyidagi ko'rinishga ega:

[Disk:] [Yo'l/] *Faylning nomi*

Faylning to'liq nomi-disk nomi, fayl joylashgan kataloggacha bo'lgan yo'l va fayl nomidan tashkil topadi.

Agar disk nomi ko'rstilmasa, joriy disk tushuniladi. Agar yo'l ko'rsatilmasa, joriy katalog tushuniladi.

Buyruqlarni kiritish

Buyruqni kiritish uchun uni buyruqlar satriga klaviaturadan terib, [Enter] tugmachasini bosish kerak. DOS buyruqlari nomi va parametrlari lotin alifbosida teriladi.

Buyruqni kiritishda quyidagi tugmachalardan hatolarni to'g'rilash uchun foydalanish mumkin:

[DEL]-joriy belgini olib tashlaydi,

[Backspace]-kursordan chapdagi belgini o'chiradi,

[Ins]-almashtirish rejimini yoqadi yoki o'chiradi,

[Esc]-buyruqni butunlay o'chiradi,
[F3]-buyruqlar satriga avvalgi buyruqni chaqiradi.

Dastur ishini to'xtatish

Ba'zi hollarda dastur ishini to'xtatish zarur bo'ladi. Masalan dastur noto'g'ri bajarilayotgan bo'lsa yoki kompyuter "osilib" qolsa (ya'ni tugmachalar bosilishiga kompyuter e'tibor bermasa), dastur ishi to'xtatiladi.

Buning uchun [Ctrl] va [Break] yoki [Ctrl] va [C] ni bosish kerak, agar bu yordam bermasa, [Ctrl]+[Alt]+[Del] ni kiritib, MS DOS qaytadan yuklanadi. Agar bu ham yordam bermasa, kompyuter o'chirib yoqiladi.

Agar MS DOS buyruqni bajarayotganda ekranda :

Strice any key when ready

(tayyor bo'lganingizda, ixtiyoriy tugmachani bosing) yoki

Strice any to continue

(davom ettirish uchun ixtiyoriy tugmachani bosing) hosil bo'lsa, u holda ishini davom etishi uchun ixtiyoriy tugmachani bosish kerak.

MS DOS ning asosiy buyruqlari

Matnli faylni tashkil etish

Matnli faylni tashkil etish uchun

Copy con <faylning nomi> buyruqi kiritiladi va fayl satrlari klaviaturadan kiritiladi. Xar bir satr [Enter] bilan, oxirgisi esa, [F6]+[Enter] bilan tugatiladi. Natijada ekranda quyidagi javob chiqadi:
1 file(s) copied (1 ta fayl nusxasi ko'chiriladi) va diskda faylning nomi hosil bo'ladi.

Masalan:

Copy.con xxx.doc-joriy katalogda xxx.doc fayli hosil bo'ladi.

Faylni o'chirish

Faylni doimiy xotiradan o'chirish uchun del (delete-o'chirish) buyruqsi quyidagi formatda beriladi.

Del [Disk:] [yo'l/] [faylning nomi]

Faylning nomida "*", "?" belgilaridan foydalanish mumkin.

Masalan:

Agar katalogning barcha fayllarini o'chirmoqchi bo'lsangiz

Del *.* buyrug'i kiritiladi. Kompyuter bo'nga quyidagicha javob beradi:

Are You sure (Yg'N)? (Ishonchingiz komilmi?)

Faylni o'schirish uchun "Y", aks holda "N" kiritiladi.

Yoki "del xxx.doc" buyruqsini kiritsangiz, joriy katalogdagi xxx.doc fayli o'chiriladi.

Faylni qayta nomlash

Faylni qayta nomlash buyruqsi ren ("rename"-qayta nomlash). U quyidagicha

Ren [Disk:] [Yo'l/] faylning nomi faylning yangi nomi

Masalan :

Ren xxx.doc xxx.txt - buyruq joriy katalogdagi xxx.doc fayli nomini xxx.txt ga o'zgartiradi.

Faylning nusxasini ko'chirib o'tish.

Faylning nusxasini ko'chirish buyruq nomi copy ("copy"-nusxa ko'chirish). Uning formati quyidagicha:

copy <Faylning nomi> <Faylning nomi> yoki copy <Faylning nomi> [katalog nomi]

Birinchi buyruqda nomi ko'rsatilgan faylning nusxasi ko'rsatilgan nom bilan ko'chiriladi.

Ikkinchi buyruqda faylning nusxasi ko'rsatilgan katalogga ko'chiriladi.

Faylning nusxasini printeriga chiqarish uchun copy <faylning nomi> prn buyruqni kiritish yetarli.

Masalan:

copy xxx.doc xxx.txt-joriy katalogda xxx.doc faylining nusxasi xxx.txt ni hosil qiladi.

copy a:g*.* - a diskning tub katalogidagi barcha fayllar nusxasini joriy katalogga ko'chiradi.

Diskda faylni tez topish

ff ("file find"-faylni topish) dastursi diskda faylni topishga yordam beradi. Buning uchun faylning nomini berishingiz lozim, ya'ni

ff <faylning nomi>

Masalan:

ff digger.doc - buyruqsi diskdagi barcha kataloglardan digger.doc faylini topib beradi.

Fayl matnini ekranga chiqarish

Fayl matnini ekranga chiqarish uchun

type <fayl nomi>

buyruqni kiritish zarur. Natijada ekranda fayl matni hosil bo'ladi.

Ma'lumot chiqishini to'xtatish uchun [Ctrl]+[S] bosiladi.

Masalan: Type paper.doc

buyruqsi ekranga paper.doc fayl matnini chiqaradi.

-Monitor ekranini tozalash uchun Cls buyruqsi kiritiladi. Natijada, MS DOS ning taklifi ekranning birinchi satriga ko'chadi.

.bak kengaytgichli fayllarni o'chirish

.bak kengaytgichli qattiq diskdagi fayllarni o'chirish uchun buyruqlar satrida

del *.bak buyrug'ini terish kifoya. Bu buyruq joriy diskni fayllarining eski nusxalaridan tozalaydi.

Joriy diskni o'zgartirish

Joriy diskni o'zgartirish uchun disk nomidan keyin (:) qo'yiladi, ya'ni :

a:- A: diskka o'tish uchun,

b:- V: diskka o'tish uchun,

c:- S: diskka o'tish uchun.

Joriy katalogni o'zgartirish

Joriy katalogni o'zgartirish uchun cd ("change directory"- katalogni o'zgartirish) buyruqsidan foydalaniladi. Uning formati quyidagicha:

cd [Disk:] [yo'l/]

Masalan:

Cd/ - joriy disk katalogiga o'tishni ta'minlaydi.

cd.. - oldingi bosqichdagi katalogga qaytaradi.

Katalogni ko'zdan kechirish

Katalogni ruyxatini chiqarish uchun dir buyruqsidan foydalanish mumkin. Uning formati:

dir[Disk:] [yo'l/] [faylning nomi] [/P] [/W]

Agar fayl nomi berilmasa, katalogning mundarijasi chiqadi. Bunda diskdagi xar bir katalog va fayllar nomi, hajmi, yozilgan kun va vaqti xaqidagi ma'lumot ekranga chiqadi

Bunda :

/P- belgisi mundarijani ekran bo'ylab varaqlab chiqaradi;

/W- belgisi faqatgina fayllarning nomini chiqaradi.

Ro'yxat oxirida fayllar soni, egallangan va bo'sh joy hajmlari keltiriladi.

Katalog tashkil qilish

Katalogni tashkil qilish uchun md ("make directory"- katalog ochish) buyruqsidan foydalaniladi.

Uning formati:

md [Disk:] [yo'l/]

Masalan:

Md XXX - XXX katalogini joriy katalogda hosil qiladi.

md a: / WORK - A: diskda WORK katalogini hosil qiladi.

Katalogni o'chirish

Katalogni o'chirish uchun rd ("remove directory"-katalogni o'chirish) buyruqsidan foydalaniladi.

rd [Disk:] [yo'l/]

Katalogni o'chirishdan avval uning fayl va kataloglari o'chiriladi, ya'ni katalog bo'sh bo'lishi lozim.

Disketalar bilan ishlash

Disketani formatlash.

Disketani ishlatishdan avval uni formatlash zarur. Uning uchun MS DOS ning maxsus Format buyruqsidan foydalaniladi. Bu buyruq formati:

format a: Buyruq kiritilgandan keyin quyidagi xabar chiqadi:

Insert new diskette to drive x: and strike Enter when ready

(Disketani qo'ying va [Enter] ni bosing).

Agar disketa yaroqsiz bo'lsa, quyidagi xabar chiqadi.

Track 0-bad-disk unusable (O chi yo'l yaroqsiz, disketani ishlatish mumkin emas).

Formatlash tugatilganda, savol beriladi:

Format another (Y/G'N)? (Yana formatlaysizmi (ha, yo'q?))

Agarda disketada biror ma'lumot bo'lsa, formatlash natijasida u o'chiriladi.

- Agar "format a:/S" buyruqsi kiritilsa, formatlash natijasida "sistemali" disketa hosil bo'ladi. Undan MS DOS OC sistemani yuklashingiz mumkin.

360 Kbaytli diskni 360 Kbayt va undan kamroq hajmga, 1.2 Mbaytli diskni 1.2 Mbayt va undan kamroq hajmga formatlash mumkin.

Disketalarni kattaroq hajmda ham formatlash mumkin. Buning uchun format buyruqsida yo'lkalar va sektorlar soni ko'rsatiladi, ya'ni:

format [disk:] /T: yo'laklar soni /N: sektorlar soni

Faqatgina ularni o'qish uchun 800.com dastursini ishga tushirish zarur.

Masalan:

format a: /t:80/n:10 - A diskdagi disketa 800 Kbaytga formatlanadi.

Nazariy savollar:

1. Operatsion sistema nima?
2. Qanday OS larni bilasiz?
3. OS ni imkoniyatlarini aytib bering
4. Windows OC qanday OC?
5. Fayl nima?
6. Katalog nima?
7. MS DOS OSning ichki va tashqi buyruqlarini aytib bering

Amaliy mashg'ulotlar uchun Topshiriqlar:

Topshiriq :

1. O'z ismingiz bilan matnli fayl xosil qilish va terishni o'rganing.
2. Matnli faylni saqlang.
3. O'z ismingizda katalog xosil qiling.
4. Faylni nomini o'zgartiring.
5. Fayldan A: diskga nusxa oling
6. Ushbu faylni boshqa katalogga ko'chiring
7. Fayl va papkalarni o'chiring.
8. Fayl yoki papkani qidiring.
9. Mundarijani turli xil ko'rinishda ko'ring
10. Data (sanani) ni o'zgartiring
11. Soatni o'zgartiring
12. Diskni formatlang
13. Katalogni arxivlang
14. Yordam buyrug'idan foydalanib MS DOS ning boshqa buyruqlarini ko'rib chiqing

Amaliy mashg'ulot № 4

NORTON COMMANDER, WINDOWS COMMANDER QOBIQ DASTURI BILAN ISHLASH
MASHG'ULOTNING MAQSADI: Kompyuter klaviaturasida mavjud bo'lgan tugmachalar majmuining vazifalarini va WC dasturini tushuntirish, matn yozishni, jadvalli ma'lumotlar tashkil qilishni mashq qilishga o'rgatish, xato va kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llarini amalda ko'rsatish.

MASHG'ULOTNING JIHOZI: ko'rgazmali material

- a) Shaxsiy kompyuter qurilmalari.
- b) Funktsional tugmachalarning vazifalari
- v) Maxsus tugmachalar.

g) Klaviatura tugmachalarining vazifalarini ifodolovchi tarqatma material.

MAShG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium komp'yuterlari bilan jihozlangan kompyuter sinfi.

MAShG'ULOTNING BORISHI:

a) **Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.**

b) **Yo'qlama qilish.**

v) **Avvalgi mashg'ulotlarda o'tilganlarni takrorlash bo'yicha suhbat o'tkazish:** MS-DOS OS haqidagi 1-ko'rgazmali quroldan foydalanish. qurilmalar, ularning vazifalari, kompyuterlarni o'chirish va yoqish, turli amaliy dasturlar haqida savol-javoblar.

g) **Yangi mavzuning bayoni:** Tugmachalar vazifalarini ko'rsatuvchi ko'rgazmali qurol yordamida bayon etiladi.

d) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

AMALIY TOPSHIRIQNING QISQACHA BAYONI

Qobiq dasturlar haqida ma'lumot


MS DOS OT muhiti bilan ishlash dasturlari orasida eng ommaviylashgan qobiq dastur Piter Norton Computing firmasi tomonidan yaratilgan **WC (Norton Commander)** qobiq dastur hisoblanadi. WC dasturini **1992 yilda** amerikalik olim **Piter Norton** yaratgan. Odatda DOS muhitida foydalanuvchilarga fayl va kataloglar yaratish, qayta nomlash, nusxa olish, o'chirish kabi bir qator ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda WC qobiq dasturidan foydalanish qulay. WC qobiq dasturidan boshqa MS DOS muhiti bilan ishlash uchun mo'ljallangan bir qator qobiq dasturlar, xususan Volkov Commander, Pie Commander, Command Processor, Dos, Path Minder, Xtree, Victoria kabi dasturlar yaratilgan bo'lib, ular ko'pchilik mamlakatlarda, jumladan, bizning respublikamizda ham ommalashmadi. Hatto Windows qobiq dasturining dastlabki versiyalari WC ga o'xshash qilib yaratilgan. Windows Commander qobiq dasturi yordamida Windows ning ixtiyoriy buyrug'ini bajarish bilan bir qatorda :

- Fayl yaratish, qayta nomlash, ko'chirish va uni o'chirish;
- Diskdagi katalog mazmunini yaqqol ko'rish;
- Diskdagi katalog daraxtini ko'rish, kerakli kataloglarga o'tish;
- Katalog yaratish, qayta nomlash, ko'chirish va uni o'chirish;
- Matnli yoki arxivlangan fayllarni ko'rish;
- Matnli fayllarni tahrir qilish, disketga yozish;
- Ma'lumotlar bazasi va elektron jadvallar bilan ishlash;
- Tugmalar majmuasi yordamida yana bir qator ishlarni bajarish mumkin.

Norton Commander dasturining bir necha versiyalari yaratilgan. Xususan, WC dasturining 5.0 versiyasi ishlashi uchun kompyuterda 512 Kbait hajmda operativ xotira va magnit diskda 4.5 M bait bo'sh joy zarur. WC dasturining inglizcha va ruscha versiyalari mavjud, masalan, inglizcha versiyadagi Edit bandi, ruscha versiyada Pravka, Delete bandi Udal deb belgilangan.

WC dasturini yuklash va undan chiqish.

WC dasturini ishga tushirish uchun Windows ishchi stolida WC yarlig'iga sichqonchani olib boramiz va s.ch.t. 2 marta bosamiz, yoki WC yorlig'i tanlanib va «Enter» tugmasi bosiladi. Natijada kompyuter ekranida ikkita darcha (panel) ochiladi.



WC dasturidan chiqish uchun altQF4 (Quit - Vo'xod) tugmasi bosiladi..
WC dasturida qo'shimcha ma'lumot yoki yordam olish uchun F1 tugmasi bosiladi.

Agar ma'lumot to'raligicha ekranga joylashmasa, «Home», «End» «Pg Up», «Pg Down» tugmalari yordamida kerakli joyga surish bilan ko'riladi. Ma'lumotlarning quyi qismida quyidagi yozuvlar joylashgan tugmalar mavjud bo'lib, ularda

← yoki → tugmalar yordamida ko'chish orqali ham boshqa ekranga o'tish mumkin. Bu tugmalar quyidagi maqsadda ishlatiladi:


- **Next (Dalee)–ma'lumotlarning navbatdagi mavzusiga o'tish;**
- **Previus(Nazad)–ma'lumotlarning oldingi mavzusiga o'tish;**
- **Index (Ukazatel)–ma'lumotnoma mundarijasini chiqarish;**
- **Cancel (Otmena) –ma'lumotnomadan chiqish;**

WC menyusida ishlash

WC menyusi quyidagi bo'limlardan iborat Faili, Vidileniye, Navigastiya, Set', FTP, Vid, Vkladki, Konfiguratsiya, Instrumenti.


Kerakli band →, ← tugmalari yordamida tanlanadi va «Enter» tugmasi bosiladi. Yo'nalish tugmalari yordamida menyu osti buyruqlari tanlab «Enter» tugmasini bosish yordamida mazkur buyruqlardan birini bajarish mumkin.

Buning uchun kerakli bandlarga murojaat qilib, WC jadvallarining o'ng yoki chap qismida tegishli ma'lumotlarni hosil qilish mumkin.



Komando' qismining bandlaridan foydalanib, kataloglarni va fayllarni axtarish, ekranda satrlar sonini ko'paytirish yoki kamaytirish, foydalanilyotgan kompyuter tizimining imkoniyatlari haqida ma'lumot olish mumkin. Masalan, foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan faylni tez topish uchun Poisk qismiga

murojaat qilinganda, ekranda ikkilamchi darcha hosil bo'lib, u yerda *Nayti fayl* satriga izlanayotgan faylning nomi yoziladi va «Enter» tugmasi bosiladi.



Bu qismning ikkinchi guruh bandlarida jadvallar o'rnini almashtirish, olib tashlash, solishtirish, moslashtirish kabi amallarni bajarish mumkin.

Kompyuterdan foydalanuvchi ish jarayonida ba'zi fayllarga muntazam murojaat qilishi mumkin. Bu ishni osonlashtirish uchun o'rganilayotgan qismning to'rtinchi guruhida *Foydalanuvchining menyusi (Menyu pol zovatelya)* bandi mavjud. Fayllarning qo'shimchalari ustida qayta ishlash uchun qo'shimcha- lar muharriri keltirilgan.

Komando' qismining oxirgi bandi *konfiguratsiya* deb atalib, bu yerda WC konfiguratsiyasini tashkil qilish mumkin.

WC darchasi va uning ustida amallar

WC darchasida diskdagi katalog va fayllar mundariyasi, diskdagi kataloglar daraxti, disk va katalog haqida ma'lumot, fayl mazmuni, ajratib ko'rsatilgan fayl soni va hajmi, arxivlangan fayllar mundariyasi va yana bir qator ma'lumotlar aks etadi. Ekrandagi WC ning bir darchasi hamma vaqt faollashgan, ikkinchisi faollashmagan, faollashgan panel mavzusi alohida ajratilgan bo'ladi. WC dagi barcha harakatlar odatda faollashgan darchada bajariladi. Darchalarda bajarilishi mumkin bo'lgan amallar ro'yxati 1-jadvalda keltirilgan. Bir darchadan ikkinchisiga o'tish uchun «TAV» tugmasi bosiladi.

№	Funksional tugmalar	Vazifasi
1.	«Ctrl-U»	Darcha o'rnini almashtirish
2.	«Ctrl-B»	Ekranning quyi satridagi ellatmalar satrini olib tashlash yoki o'rnatish
3.	«Ctrl-P»	Keraksiz darchani ekrandan olish va chiqarish
4.	«Ctrl-O»	Darchani ekrandan olish va chiqarish
5.	«Ctrl-L»	Faollashmagan darchani olib tashlash va chiqarish
6.	«Ctrl-E»	Oldingi buyruqni ko'rish
7.	«Ctrl-I»	Faol oynani o'zgartirish
8.	«Ctrl-N»	WC ning tavsiyanomasi
9.	«Ctrl-F1»	Chap darchani ekrandan olish va uni ekranga chiqarish
10.	«Ctrl-F2»	O'ng darchani ekrandan olish va uni ekranga chiqarish
11.	«Ctrl-F3»	Darchada alifbo tartibida katalog va fayllarni saralash
12.	«Ctrl-F4»	Darchada alifbo tartibida fayl kengaytgichi bo'yicha saralash
13.	«Ctrl-F5»	Darchada fayl va kataloglarni tashkil etilgan sanasi bo'yicha saralash
14.	«Ctrl-F6»	Fayllarning xajmini kamayish tartibida saralash
15.	«Ctrl-F7»	Darcha, katalog, fayl-larni asl holda ko'rish
16.	«Ctrl-F9»	Ajratilgan fayl yoki fayllar guruhini chop qilish
17.	«Alt-F1»	Chap darchada disket almashtirish holatini chiqarish
18.	«Alt-F2»	O'ng darchada disket almashtirish holatini chiqarish
19.	«Alt-F3»	Faylni ko'rish
20.	«Alt-F4»	Faylni taxrirlash uchun edlin.com ni chaqirish
21.	«Alt-F7»	Faylni izlash
22.	«Alt-F8»	Avval kiritilgan buy-ruqlar ro'yxati
23.	«Alt-F9»	Ekrandagi satrlar sonini o'zgartirish
24.	«Alt-F10»	Faol diskdagi kataloglar shajarasi

Funksional tugmalar

WC dasturida ekranning quyi qismida funksional tugmalar vazifalari haqida qisqa ma'lumot joylashgan Bu funksional tugmalar va tugmalar majmuasining qisqacha tavsifini keltiramiz (2-jadval):

2-jadval

№	Buyruq yoki vazifali tugmalar	Vazifasi
1.	F1 (Help yoki <i>Pomoh</i>)	WC bilan ishlash jarayonida tugmalar vazifasi haqida ma'lumot beradi
2.	F2 (Menu yoki <i>Vo'zov</i>)	Foydalanuvchi menyusi ro'yxatidagi buyruqni ishga tushiradi
3.	F3 (View yoki <i>Chtenie</i>)	Fayl mazmunini ko'rishda ishlatiladi . Matnli, arxivlangan , elektron jadvallar va bir necha matn muxarrirlarida tayyorlangan xujjatlarni ko'rishda ishlatiladi .

4.	F4 (Edit yoki <i>Pravka</i>)	Faylni taxrir qilishda ishlatiladi
5.	F5 (Copy yoki <i>Kopiya</i>)	Fayldan nusxa olishda ishlatiladi
6.	F6 (Renmov yoki <i>Novoe imya</i>)	Fayl yoki katalogni qayta nomlashda ishlatiladi .Fayl va katalogni yangi nom berish bilan kerakli joyga ko'chirish xam mumkin
7.	F7 (MkDir yoki <i>Novo 'y katalog</i>)	Yangi katalog tashkil qilish uchun ishlatiladi .
8.	F8 (Delete yoki <i>Udalenie</i>)	Fayl yoki kataloglarni o'chirishda ishlatiladi .
9.	F9 (PullDn yoki <i>Menyu</i>)	WC boshkaruv menyusini ekranga chiqaradi . Bu menyu yordamida lozim bo'lgan buyruqlarni xam bajarish mumkin .
10.	AltQF4 (Quit yoki <i>Vo 'xod</i>)	WC qobiq dasturidan chiqishda ishlatiladi .
11.	“Ins”	Faylni guruhga qo'shish, guruhdan olib tashlash
12.	“+”	Fayllarni niqob bo'yicha tanlab, guruhga qo'shish
13.	“ - ”	Fayllarni niqob bo'yicha tanlab, guruhdan olib tashlash.

Yuqorida jadvalda keltirilgan funktsional tugmalarning fayl va kataloglar bilan ishlashga oid vazifalarini WC menyusining Fayl bandlarida ko'rish mumkin.

Bundan tashqari ma'lum maqsadlar uchun fayllarni ajratib olish yoki ajratib olishni bekor qilish xamda o'rnini almashtirish va qaytadan tashkil qilish kabi vazifalarni amalga oshirishimiz mumkin. Fayllarni qismlarga bo'lish yoki jamlash Ctrl-F10 ga mos keluvchi badda bajariladi.

WC da disk bilan ishlash

Disketni formatlash uchun WC menyusiga F9 bilan kirib, Disk (Disk) menyusini ostidan FORMAT Diskette (Formatirovat disketu) bandini tanlash lozim. So'ngra ekranda Drive (Diskovod) badda formatlanadigan disket tanlanadi .

Size (Razmer) badda mazkur disket hajmi beriladi. FORMAT Type (Tip formatirovaniya) badda formatlash rejimi,

Safe (Bezopasnoe) badda disket tekshiriladi. Ilgari formatlangan disketlar uchun Quvck (Bo'stroe) rejimida disket tekshirilmay zudlikda formatlanadi.

Disketga maxsus belgi qo'yish uchun Options (Optsii) so'rovidan foydalaniladi. Agar disket tizimli disk qilinishi joiz bo'lsa, Make System Disk (Sozdat sistemno'y disk) bandiga belgi qo'yish lozim. Disketdan nusxa olish uchun Copy Diskette (Kopirovat disketu) bandi WC ning Disk (Disk) menyusidan tanlanadi va Source (Istochno'e) so'rovnomasida ko'chirilishi lozim bo'lgan ma'lumot, Target (Poluchatel) badda ko'chirilishi lozim bo'lgan manzil ko'rsatiladi.

Disketda belgini almashtirish uchun Disk (Disk) menyusida Label disk (Metka diska) bandi tanlanadi va yangi belgi kiritiladi.

Nazariy savollar:

1. Qanday qobiq dasturlarni bilasiz?
2. WC dasturi qanday dastur?
3. Menyuni qanday ishga tushiriladi?
4. Funktsional klavishalar tasnifi haqida gapiring?
5. WC da disklar bilan ishlash qanday amalgam oshiriladi?

Topshiriq:

1. WC dasturini yuklash tartibini ko'rib chiqing.
2. Dastur gorizontal menyusi bilan tanishib chiqing.
3. Funktsional tugmachalar yordamida yangi katalog yaratish bosqichlarini ko'rib chiqing.
4. Yaratilgan katalogga fayllardan nusxa olish bosqichlarini ko'rib chiqing.
5. Fayl nomini o'zgartirish bosqichlarini ko'rib chiqing.
6. Fayl va kataloglarni uchirish tartibini ko'rib chiqing

Foydalanish uchun adabiyotlar ruyhati

1. S.I.Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent, 1998, 224 bet
2. Yu.Shafrin Osnovo' komp yuternoy texnologii. Moskva 1997.
3. M. Aripov, Muxammadiev., "Informatika, informatsion texnologiyalari ", Uzbekiston milliy kutubxonasi, 2004y, 276 bet
4. Aripov M., Xaydarov A., «Informatika», T., O'zMU, 2002 yil , 600 bet

Amaliy mashg'ulot № 5

Mavzu: Windows operatsion sistemasi ishchi stol. Bosh menyu. Masalalar paneli, fayl va papkalar bilan ishlash.

MASHG'ULOTNING MAQSADI: Windows operatsion tizimining ishchi oynasi, bosh menyusi va masalalar panelida disk, fayl va papkalar bilan ishlash. Xato va kamchiliklarni bartaraf qilish.

MASHG'ULOTNING JIHOZI: ko'rgazmali material

- 1) kompyuter qurilmalari
- 2) Windows OS
- 3) Tarqatma material

MASHG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium kompyuterlari bilan jihozlangan kompyuter sinfi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

- a) Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.
- b) Yo'qlama qilish.

v) **Avvalgi mashg'ulotlarda o'tilganlarni takrorlash bo'yicha suhbat o'tkazish:**

Windows OT haqidagi ko'rgazmali quroldan foydalanish. Ish stoli, masalalar paneli, bosh menyuning vazifalari, kompyuterlarni o'chirish va yoqish, turli amaliy dasturlar haqida savol-javoblar, WC dasturida fayl va kataloglar bilan ishlashni takrorlash

g) **Yangi mavzuning bayoni:** Bosh menyu, masalalar paneli, ish stoli, yorliqlar haqida ma'lumot berish.


d) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.


Amaliy mashg'ulotning qisqacha bayoni:

Windows XP OS ning ishchi stoli – bu kompyuterga Windows 2000 yuklanganda ekranda paydo buladi. Windows XP ishchi stolining asosiy elementlari quyidagicha:

1. Moy kompyuter (Mening kompyuterim).




Agar, siz kompyuterda bor dasturlar, komponentlar va barcha resurslarni kurib chikmokchi bulsangiz, sichqoncha yordamida shu belgini tanlab, sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosing.




Moy kompyuter asosan menyu qatoridan, uskunalar qatoridan, va menyu dasturidan iborat. Disk 3,5 (A:) bu kattik disk bilan ishlashda ishlatiladi. Lokal diskda shu diskga tegishli fayllar bilan ishlash mumkin. Kompakt disk bulimi yordamida lazer yoki kompakt disk bilan ishlashda ishlatiladi. Panel upravlenie bulimi kompyuterning boshkarish usullari bilan ishlashda ishlatiladi.

2. Setevoe okrujenie (Tarmok urami)



Siz ishlayotgan kompyuter tarmogiga ulangan balsa, yoki boglanmokchi bulsak, u xolda, marxamat kilib, sichqoncha tugmasi yordamida, shu belgini tanlang va sichqoncha tugmasini ikki marta bosing. Dastur oynasi ochilgandan keyin kompyuter tarmogiga ulangan kompyuter bilan aloka urnatish, ulardan ma'lumotlar almashish, ma'lumotlarni uzatish va xakoza ishlarni amalga oshirish mumkin.

3. Korzina (Savatcha)



Bu «Savatcha» uchirib yuborilgan fayllarni vaktincha saklab turish muljallangan. U notugri uchirib yuborilgan fayllarni kayta tiklash imkoniyatiga ega. Shuni unutmangki, Windows XP da ishlayotganingizda barcha uchirib yuborilgan fayllar yuk bulib ketmaydi, balki, ular shu «Savatcha»ga kelib tushadi. Agar siz, uchirilgan fayllarni kerak emasligiga tula ishonch xosil kilgan bulsangiz, «Savatcha» ni «tozalab» yuborishingiz mumkin.

4. Pusk tugmachasi



Bu tugmachani Windows XP olamiga kirish tugmachasi desa xam buladi. Chunki, bu tugmacha orkali xar kaday programmi ishga tushirish, xujjatlarni ekranga chikarish, sistemani sozlash va kayta sozlash, yordamchi ma'lumotlar olish va kerakli bulgan faylni tez kidirib topish kabi eng kerakli operatsiyalar bajariladi.



Пуск tugmachasi sichqoncha yoki klaviatura yordamida ochilgach, ekranda menyu paydo buladi. Uning «programmalar» punkti yordamida kompyuteringizda mavjud bulgan barcha programmalarga kirishga imkon yaratiladi.

Agar, yaxshi axamiyat bersangiz, ochilgan menyuning «Zavershenie rabotu», «Vupolnit », «Spravka», punktlaridan tashkari xammasida strelkalar bor (shu jumladan, «Programmalar» punktida xam). Bu strelkaning mavjudligi menyuning shu punktida yana menyu xosil bulishini yoki bir nechta programmalar xosil bulishini kursatadi.

«Programmalar» punkti orkali xamma programmalarga ayrishingiz mumkin. Xuddi shu menyuda yana «provodnik» (kuzatuvchi, kuzatib yuruvchi) punkti mavjud bulib, bu punktga utsangiz siz diskdagi barcha fayl sistemasi papkalar kurinishida paydo buladi.

Printero' (Printerlar)

Kompyuterga printerni sozlash uchun yoki chop etiladigan xujjatlar tugrisida ma'lumot olish uchun ishlatiladi.

Vo'polnit (Bajarish)

Agar siz, ixtiyoriy Windows 2000 boshkaruviga ishlovchi programmani ishga tushirmokchi bulsangiz, ixtiyoriy papkani ochmokchi bulsangiz yoki tarmok resurslariga murojaat etmokchi bulsangiz, «Bajarish» punktidan foydalanishingiz mumkin.

WINDOWS XP ning yangi imkoniyatlari

1. Yangi takomillashgan interfeys. Windows XP OC da Pusk tugmachasi joylashtirilgan masalalar paneli paydo buldiki, bu tugmacha xar kanday programmani tez yuklash, kerakli xujjatni tez topish, xamda sistema resurslariga tez murojaat kila olish mumkin. Bir programmadan boshka programmaga utish xuddi televizorda bir programmadan boshkasiga utish kabi kulaydir.
2. «Provodnik». Windows XP dagi «Provodnik» (kuzatuvchi) fayl strukturasini kurishning eng yaxshi vositasi xisoblanadi, xamda fayllarni boshkarish, diskalar bilan va tarmokka ulanishning xam eng yaxshi vositasi xisoblanadi.
3. Fayllarning nomini uzunligi. Windows XP fayllarini nomini uzun bulishini ta'minlay oladi. Bu esa, uz navbatida fayl tizimini tuzilishi va fayllarni kidirishni osonlashtiriladi.
4. Uz-uzidan sozlanadigan kurilma (Plug end play). Uz-uzidan sozlanadigan kurilma (Plug end play)ni kompyuterga bevosita ulasangiz va kompyuterni ishga tushirsangiz bas. U avtomatik ravishda kompyuter tomonidan sozlab kuyiladi.
32-razryadli kupmasalalik mexanizmi. Bir nechta programmalarni birgalikda samarali ishlashini WINDOWS XP dagi takomillashtirilgan kupmasalalik mexanizmni ta'minlaydi.
5. MICROSOFT EXCHANGE. MICROSOFT EXCHANGE.- tashki olam bilan aloka kilishning universal vositadir. Uning yordamida elektron pochta va faks va boshka aloka vositalariga bir vaktida murojaat kilish masalalari yechiladi.
6. MICROSOFT Network. MICROSOFT Network.- bu juda oddiy va ishlatishga kulay axborot xizmati xisoblanib, insonlarni butun dunyo mukyosida elektron pochta, elektron e'lonlar doskasi va internet orkali mulokatini ta'minlaydi.

WINDOWS XP operatsion sistemasida ishlash.

Windows tugrisida barcha ma'lumotlarini olish uchun, ma'lumotlar olish tizimiga murojaat kilish kerak. Bu tizim yordamida, shunindek, bajarilayotgan masalalar soni va ekrandagi barcha elementlar tugrisida xam ma'lumot olish mumkin.

Agar, ma'lumotlar olish tizimi Windows ning asosiy menyusi, «Moy kompyuter» papkasining «Spravka» menyusi yordamida yoki Windows kuzatuvchi yordamida ochilgan bulsa, u xolda, ekranda

Windows ning ma'lumotlar olish tizimi paydo buladi. Agar, ma'lumotlar olish biror programmaning spravka menyusi yordamida ochilgan bulsa, masalan, Paint grafik redaktori yoki Microsoft Word matn redaktorining, (ichidagi spravka menyusi) u xolda, ekranda tegishli programmaning ma'lumotlar tizimi paydo buladi. Windows da Provodnik bilan ishlash juda yaxshi natija beradi. Provodnikka utish uchun klaviaturadan Pusk tugmasi yordamida yoki sichqonchaning strelkasini Pusk tugmasiga olib kelib sichqonchaning o'ng tomoninin bosish kerak.

Provodnik fayllar menyudan, papkalardan, uskunalar panelidan iborat. Bunda fayllar bilan ishlash, yangi papkalar xosil qilish, komandalar bilan ishlash mumkin. Xar bir menyu qatorining uz bulimlari bor.

Fayllar va papkalar

Fayl-bu diskdagi biror nom bilan ataladigan soxadir. Bu ta'rifni biz MS DOS operatsion sistemasini urganishda xam uchratganmiz. MS DOS va WINDOWS 3.11 OC laridan farkli ularok Windows 2000 OS da fayllarga xam yorlik (maxsus belgi) kuyiladi.

Papkalardan esa, fayllar majmui joylashgan buladi. Papka ichida yana papka joylashgan bulishi xam mumkin. Bu asosan MS DOS dagi kataloglarning analogidir.

Papkalardan yoki fayllardan nusxa olish uchun yoki bir joydan boshka joyga kuchirib utish uchun «Moy kompyuter» belgisini tanlang va sichkon tugmachasini ikki marta bosing. Kerakli faylni (yoki papkani) toping va sinkoncha tugmasini bosing.

Faylni kuchirish uchun «Pravka» menyusidagi «Vurezat» komandasini tanlang. Fayldan nusxa olish uchun esa:

- «Pravka» menyusidagi «Kopirovat » komandasini tanlang.
- Faylni kuchirish kerak bulsa papkani oching
- «Pravka» menyusidagi «Vstavit » komandasini tanlang.

Shu yerda ikki xil operatsion, ya'ni fayllarni kuchirish va fayllardan nusxa olish operatsiyalarining uzaro farkiga tuxtalib utsak.

Fayllarni kuchirish- faylni bir papkadan boshka papkaga utkazish yoki bir diskdan boshka diskga utkazish tushuniladi. Lekin fayl eski papkada kolmaydi.

- Fayllardan nusxa olish-faylni bu xam bir papkadan boshka papkaga, bir diskdan boshka diskga utkazish tushuniladi. Ammo, bu xolda, faylning bir nusxasi eski joyda koladi.

Fayllarni yoki papkalarni uchirish

- Buning uchun «Moy kompyuter» belgisini tanlang va sichkon tugmachasini ikki marta bosing. Uchirilishi kerak bulgan fayl (yoki papkani) toping va sichkon tugmachasini bosing.
- Fayl menyusidagi «Udalit » (uchirish) komandasini toping.

Uchirilgan fayllar korzina (savatcha)ga solib kuyiladi. Savatcha uchirilgan fayllarni vaktincha joylab kuyishga muljallangan. Fayllarni kattik diskdan xakikiy uchirib tashlash fakatgina savatcha «tozalangandagina» amalga oshiriladi. Disketadan uchirib yuborilgan fayllar savatchaga joylashtirilmaydi

Yangi papkani xosil qilish

Yangi papkani xosil qilish uchun:

- «Moy kompyuter» belgisini tanlang va sichkon tugmachasini ikki marta bosing. So'ngra, yangi papka kaysi disk yoki papkani ichiga joylashtirish kerak bulsa, ushani tanlab, sichqoncha tugmasini ikki marta bosing.
- Fayl menyusiga kirib «sozdat » komandasini tanlang, so'ngra papka punktini tanlang.
- Yangi papkaning nomini kiriting va ENTER tugmasini bosing.

Xujjatlar bilan ishlash

Endi biz, Windows da xujjatlar bilan ishlashning ba'zi uziga xos tomonlari bilan tanishamiz. Biror konkret programma tugrisida ma'lumot olmokchi bulsangiz, k xolda, shu programmaning ma'lumot olish tizimiga murojaat etishni tavsiya kilamiz.

Xujjatlar bilan ishlaganda tekstlarni ba'zi qismlarini bir joydan boshka joyga, yoki bir punktdan boshka punktga utkazish muammolariga duch kelamiz. Bundan tashkari, ba'zan xujjatning bir qismini umuman olib tanlashga xam (uchirib tanlashga) tugri keladi.

Windows 2000 da xujjatlar bilan ishlash, eng avvalo, xujjatning ma'lum bir qismini ajratishdan boshlanadi, xar kanday komanda xujjatini ajratilgan qismi ustida bajariladi. Xar kanday xujjatning ma'lum qismini ajratish uchun kursorni ajratilishi kerak bulgan joyga urnating, so'ngra sichkon tugmasini bosing va kuyib yubormasdan ajralishi kerak bulgan joyga olib boring. Shundan so'ng, sichkon tugmasini kuyib yuboring. Siz kerakli qism ajratilganligining guvoxi bulasiz. Xujjatlar bilan ishlash uchun maxsus dastur Microsoft Word redaktori mavjud bulib, unda xujjatlar bilan ishlash uchun deyarli barcha imkoniyatlar mavjuddir.

Xujjatlarni tez kidirib topish.

Xujjatlarni tez kidirib topish uchun va kerakli papkani ochish uchun «Nayti» komandasidan foydalanish kerak. Buning uchun:

- «Pusk» tugmachasini bosing.
- «Nayti» menyusidagi «Fayl i papki» (fayllar va papkalar) komandasini tanlang.
- «Imya» deb yozilgan joyga kidirilayotgan papka yoki faylning nomini yozing.
- Qidirilayotgan soxani kursatish uchun «papka» ruyxatini oching yoki «Obzor» knopkasini bosing.
- Qidirishni boshlash uchun «nayti» (topilsin) tugmachasini bosing.

«Vupolnit » komandasi yordamida programmani ishga tushirish.

Agar, foydalanuvchiga programmaning nomi va uning kaysi papkada joylashganliga, ya'ni boshkacha kilib aytganda, bu programmaga yul anik bulsa, u xolda, bu programmani «Vupolnit » komandasi yordamida ishga tushirish eng oson yul xisoblanadi.

Buning uchun:

«Pusk» tugmachasi bosiladi va «Vupolnit » komandasiga utiladi. Programmaning nomi, papkaning nomi yoki xujjat nomi yoziladi va OK knopkasini bosiladi.

Programmani «Vupolnit » komandasi yordamida ishga tushirilganda fakat faylning nomi kursatiladi yetarli, faylga yul kursatilmasa xam buladi. Yul- bu kompyuterdagi yoki kompyuter tarmogidagi faylning joylashuvi tugrisidagi ma'lumotni kursatishning eng oddiy usulidir. Yul odatda eng avval kattik, yumshok yoki kompakt-diskning nomidan boshlanadi, xamda xujjat joylashgan bir yoki bir necha papkalar nomidan va nixoyat fayl nomi bilan yakunlanadi.

Faylga tulik yul kursatish uchun diskning nomini yozing va (:) kuying va teskari bulish belgisi (g) ni kuying. So'ngra, ochilishi kerak bulgan papkalarni birin-ketin yozib chiking. Papkalarning joylanish ketma-ketligi ularning ochilish ketma-ketligi bilan bir xilda bulishi kerak. Agar, papkalar bir nechta bulsa, ularning nomlari xam teskari bulish belgisi (g) bilan ajratilishi kerak.

WINDOWS XP da ishni yakunlash. Windows OS da ishini xavfsiz tugallashga katta axamiyat beriladi. Kompyuterda ishni tugallashdagi yoki kayta yuklashdan oldin Windows ning ishini yakunlash kerak buladi. Bu xol, uz navbatida barcha kilingan ishlarning natijalarini kattik diskda saklanishini qoralaydi. Fayllarga zarar yetishdan ximoyalanish maksadida xar doim kompyuterni uchirishdan oldin Windows ishini yakunlash kerak buladi. Buning uchun:

- «Pusk» tugmachasini bosing, keyin «Zavershenie rabotu» (ishni yakunlash) komandasini tanlang va sichqoncha tugmasini bosing.
- «OK» (Xa) tugmasini bosing. Agar, Windows sizga bu xakda eslatma beradi.
- Kompyuterni uchirish mumkin bulsa va xech kanday xavf bulmasa, ekranda tegishli ma'lumot paydo buladi.

Agar siz, Windows XP OS yordamida ixtiyoriy faylga, papkaga, programmaga yoki xujjatga murojaat kilmokchi bulsangiz, buni «Moy kompyuter» degan papka ta'minlaydi. Windows birinchi marta yuklangan paytda «Moy kompyuter» belgisi Windows ishini stolning eng yukori va chap burchagida joylashgan buladi.

Kompyuterda qanday qurilma va eng kerakli programmalar borligini bilmokchi bulsangiz, «Moy kompyuter» belgisini tanlang va sichkon tugmachasini ikki marta bosing. Ekranda bir necha belgilardan iborat bulgan darchaochiladi. «Moy kompyuter» papkasidagi biror belgini tanlash uchun tanlang va sichqoncha tugmasini ikki marta bosing.

Nazariy savollar

1. Windows OC qanday OC?
2. Uning imkoniyatlari haqida gapiring
3. Ishchi stoli nima?
4. Bosh menyu nima uchun kerak?
5. Ish stolining asosiy yorliqlarini va ularnig vazifalarini aytib bering

Amaliy mashg'ulotlar uchun Topshiriqlar:

1. **Windows** ga kiring.
2. **Yangi Yorliq** tashkil eting
3. Oynalarni ochish va yopish usullarini ko'rsating

4. **Korzinani** tozalang

5. **Svoystva** oynasiga kirib sanani o'zgartiring

6. **Fayl** hosil qiling va saqlab quying.

7. Ish stolida kalkulyator yorlig'ini yarating

8. Ish stolidagi rasmni o'zgartiring

9. Lotin alifbosidan kirill alifbosiga o'ting

10. Yangi papka yarating

11. Diskdagi fayllarni kurib chiqing

11.«PROVODNIK» ilovasi menyusi bo'limlarini ko'rsatib va xar birining vazifalarini aytib bering.

12. Bosh menyudagi «PROGRAMMA» qismida oficc dasturlari bo'limini yarating. O'nga MICROSOFT OFICCE paketining ixtiyoriy uchta dasturini yozing.

13.«PANEL UPRAVLENIYa» ilovasidagi barcha yorliqlar mazmunini tushuntirib bering.

14. Diskda berilgan shriftlarni komp'yuterga o'rnatib.

Topshiriq 2:

1. S: diskning asosiy papkasida «Provodnik»dan foydalanib, 4 ta papka tuzing.

2.A: diskning asosiy papkasida «Mening komp'yuterim»ni foydalanib, 4 ta papkalar tuzing.

3. Yaratilgan papkalarni boshqa nom bilan qayta nomlang.

4. Mashqlar panelini yoping, bu amalni bekor kiling.

5. Provodnik yordamida WINWORD papkalarini ko'rib chiqing va quyidagilarni xisoblab chiqing: a) papkalar sonini; b) matnli fayllar sonini.

7. 1-papkada Huquq.doc faylini tuzing (fayl kengaytmasi nimani bildiradi?).

7. Faylni qayta taxrir qilib, o'nga quyidagi jumlani yozing: «To'tiqushni asrang -bu qush kimmatli».

8. Faylni qayta nomlab, o'nga «Maqol» nomini bering.

9. Provodnikdan foydalanib, faylni A papkaga nusxalang.

10. Bajarganlaringizni o'chiring.

11. Ish stolining yangi palitrasini o'rnatib, yangi rangli bezak o'rnatib.

12. Ish stolidagi belgilarni o'lchamlari bo'yicha saralang.

Topshirik 3:

1. S: diskning asosiy papkasida «Mening komp'yuterim»dan foydalanib, «huquq» papkasini tuzing.

2. «huquq» papkasida «Provodnik»dan foydalanib 3 ta papkalarni tuzing.

3. 1-papkada 2 ta huquqshunos.TXT, huquqshunos.doc fayllarini tuzing (bu kengaytmalar nimani bildiradi?).

4. «Provodnik»dan foydalanib, huquqshunos. txt ni 2-chi papkaga joyida qoldirmasdan nusxalang.
5. Boshqa papkaga o'tish oynasidan foydalanib, 1- papkani 3-chi papkaga nusxalang.
7. «Pusk» menyusidan foydalanib, huquqshunos. txt faylini toping.
7. huquqshunos.txt faylini qayta taxrir qiling va quyidagi jumlanı yozing: «Ish bilganga ming tanga».
8. WINDOWS papkasini toping. Fayl va papka sonini xisoblang.
9. Masalalar panelidan soatni olib tashlang, bu amalni bekor qiling.
10. Ish stolida belgilarni saralang: a) kattaligi; b) nomi bo'yicha.
11. Bajarganlaringizni o'chiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar ruyhati

1. S.I.Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent, 1998, 224 bet
2. Yu.Shafrin Osnovo' komp yuternoy texnologii. Moskva 1997.
3. M. Aripov, Muxammadiev., "Informatika, informatsion texnologiyalari ", Uzbekiston milliy kutubxonasi, 2004y, 276 bet
4. Aripov M., Xaydarov A., «Informatika», T., O'zMU, 2002 yil , 600 bet

Amaliy mashg'ulot № 6

Windows operatsion sistemasining standart dasturlari. WordPad, Bloknot, Kalkulyator,

Xizmatchi dasturlar va boshqa dasturlar

MASHG'ULOTNING MAQSADI: WordPad, Bloknot, Kalkulyator, Xizmatchi dasturlar va boshqa dasturlar bilan ishlashni o'rgatish

MASHG'ULOTNING JIHOZI ko'rgazmali material

a) kompyuter qurilmalari.

b) WordPad, Bloknot, Kalkulyator, Xizmatchi dasturlar

MASHG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium kompyuterlari bilan jihozlangan kompyuter sinfi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

a) **Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.**

b) **Yo'qlama qilish.**

v) **Avvalgi mashg'ulotlarda o'tilganlarni takrorlash bo'yicha suhbat o'tkazish:**

Windows OT standart dasturlari haqidagi ko'rgazmali quroldan foydalanish. Ish stoli, masalalar paneli, bosh menyuning vazifalari, kompyuterlarni o'chirish va yoqish, turli amaliy dasturlar haqida savol-javoblar.


g) **Yangi mavzuning bayoni:** WordPad, Bloknot, Kalkulyator, Xizmatchi dasturlar va boshqa dasturlar haqida ma'lumot berish.

d) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

Amaliy mashg'ulotning qisqacha bayoni:

Windows operatsion sistemasining standart dasturlariga quyidagi dasturlar kiradi:



Paint dasturi grafik muxarriri hisoblanadi, Word Pad, Bloknot dasturlari matn muxarriri, kalkulyator yordamida xisob-kitob amallarini bajarish mumkin, Provodnik (Yo'l Boshlovchi) dasturida fayl va kataloglarni joylashgan tartibiga qarab ko'rish, foydalanish mumkin. Standart dasturlar ichida Xizmatchi dasturlar muhim o'rin tutadi. Xizmatchi dasturlarda quyidagi vazifalarni bajarish mumkin: Windowsni faollashtirish, fayl va kataloglarni arxivlash, sistemani tiklash, diskni defragmentatsiyalash, diskni tozalash, sistema haqida ma'lumot olish va h.z

Nazariy savollar:

1. Standart dasturlar deganda nimani tushunasiz?
2. Standart dasturlarga nimalar kiradi?
3. Xizmatchi dasturlar nima uchun kerak?
4. Paint, Word Pad, Bloknot, Provodnik dasturlari vazifalarini tushuntirib bering

Amaliy mashg'ulotlar uchun Topshiriqlar:

Topshiriq 1:

1. Paint dasturidan foydalanib huquqshunoslar tamg'asini chizing
2. WordPad Bloknot matn muxarririda o'z tarjimai holingizni hamda talabalikka qabul qilish uchun rector nomiga arizani kiriting
3. Kalkulyator dasturida hisob-kitob amallarini bajarib ko'ring

Topshiriq 2:

1. «PROVODNIK» ilovasi menyusi bo'limlarini ko'rsatib va xar birining vazifalarini aytib bering.
2. S: diskning asosiy papkasida «Boshlovchi»dan foydalanib papkalarini tuzing.
3. A: diskning asosiy papkasida «Mening komp'yuterim»dan foydalanib papkalarni tuzing.

4. Papkalarni boshqa nomga qayta nomlang.
5. Boshlovchi yordamida WINWORD papkalarini ko'rib chiqing va quyidagilarni xisoblab chiqing: a) papkalar sonini; b) matnli fayllar sonini.
6. Boshlovchidan foydalanib, ixtiyoriy matnli faylni tanlab faylni A papkaga nusxalang.
7. Bajarganlaringizni o'chiring.

Topshiriq 3:

1. S: diskning asosiy papkasida «Mening komp yuterim»dan foydalanib, HUQUQ papkasini tuzing.
2. HUQUQ papkasida «Boshlovchi»dan foydalanib 3 ta: H1, H2, H3 papkalarni tuzing.
3. H1 papkasida 2 ta huquqchi.txt (Bloknot), huquqchi.txt (WordPad) fayllarini tuzing (bu kengaytma nimani bildiradi?).
4. «Boshlovchi»dan foydalanib, huquqchi.txt larni H2 ga oldingi joyida qoldirmasdan nusxalang.
5. Boshqa papkaga o'tish oynasidan foydalanib, H1 papkani H3 papkasiga nusxalang.
6. huquqchi. txt faylini qayta taxrir qiling va quyidagi jumlani yozing: «Ish bilganga ming tanga».
7. «Boshlovchi»dan foydalanib Windows papkasini toping. Fayl va papka sonini xisoblang.

Topshiriq 4:

1. Xizmatchi dasturlarni sanab bering, ularning imkoniyatlari va vazifalarini aytib bering
2. «Provodnik» dan foydalanib yaratgn papka va fayllaringizni arxivlang
3. Windowsni aktivatsiyalashni, diskni tozalashni, sistemani tiklashni, sistema haqida ma'lumot olishni, diskni defragmentatsiyalashni ko'rib chiqing

Foydalanish uchun adabiyotlar ruyhati

1. S.I. Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent, 1998, 224 bet
2. Yu. Shafrin Osnovo' komp yuternoy texnologii. Moskva 1997.
3. M. Aripov, Muxammadiev., «Informatika, informatsion texnologiyalari », Uzbekiston milliy kutubxonasi, 2004y, 276 bet
4. Aripov M., Xaydarov A., «Informatika», T., O'zMU, 2002 yil , 600 bet

Amaliy mashg'ulot № 7

Microsoft Word matn muharriri. Yozuvlar va xujjatlar bilan ishlash.

MASHG'ULOTNING MAQSADI: Word dasturi va Yozuvlar va xujjatlar bilan ishlash. Xato va kamchiliklarni bartaraf qilish.

MASHG'ULOTNING JIHOZI: Ko'rgazmali material:

- a) Kompyuter qurilmalari.
- b) Ob`ektlar bilan ishlash
- v) Gorizontal menyu bilan ishlash

MASHG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium IV kompyuterlari bilan jihozlangan kompyuter sinfi, Windows operatsion tizimi va word dasturi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

a) **Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.**

b) **Yo'qlama qilish.**

v) **Avvalgi mashg'ulotlarda o'tilganlarni takrorlash bo'yicha suhbat o'tkazish:** o'tilgan mavzularni qisqacha takrorshlash.

g) **Yangi mavzuning bayoni:** word dasturida ishlashni kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi.

d) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

Amaliy mashg'ulotlarning qisqacha bayoni

Microsoft Word matnlar taxrirllovchisi kup amalli dasturdan iborat matn muxarriri bulib, Microsoft Office paketining asosiy dasturlaridan biri xisoblanadi. Matnni taxrirlashning asosiy boskichlarini quyidagicha ta'riflash mumkin: xujjatni yaratish, saklash, uzgartirish, bezash, bir nechta xujjatdan bir butun xujjat yaratish va x.k.

Ushbu matn muxarririning imkoniyatlarini quyida keltirilgan ba'zi amallardan xam bilish mumkin:


- ♥ Matnning orfografiyasi va grammatikasini tekshirish.
- ♥ Jadvallar bilan ishlash, ularning chegaralari va ichki rangini tanlash.
- ♥ Rasm chizish.
- ♥ Elektron xujjatlarni yaratish, saklash, taxrir kilish va x.k.
- ♥ Elektron pochta kutisidan olingan xabarlarini taxrirlash va boshka imkoniyatlar kiradi.

Word matn muxarririni ishga tushirish uchun ish stolidagi uning yorligini, ya'ni quyidagi rasmni toping va  ustiga sichqoncha kursatkichini olib kelib, chap tugmachasini ikki marta tezlikda bosong. Agar bu ~~rasmni~~ ish stolidan topa olmasangiz, ekranning quyi qismida joylashgan satr (Masalalar paneli)dagi «**Pusk**» menyusi ustiga sichqoncha kursatkichini olib kelib chap tugmachasini bir marta bosong. Natijada quyidagi oyna namoyon buladi.

Ochilgan menyudan «**Programmi**» qismini, so'ngra o'ng tomonda xosil bulgan ruyxatdan **Microsoft Word** qatorini tanlang va sichqonchaning chap tugmachasini bir marta bosong. Bu amallarni bajargandan so'ng Word matn muxarriri ishga tushadi va Microsoft Word interfeysi oynasi paydo buladi.

Qulaylik yaratish maksadida ba'zi atamalarni kelishib olishimiz lozim. «Sichqonchaning chap tugmachasini bosamiz» jumlasini «sichqonchani bosamiz» deb aytamiz. Agarda sichqonchaning o'ng tugmachasini ishlatish zaruriyati tugilib kolsa, bu xolni aloda ta'kidlab ketamiz. Biror buyrug'ni, suzni yoki tugmachani «faollashtiramiz» («aktivlashtiramiz») deganda ular ustiga sichqoncha kursatkichini olib kelib, chap tugmachasini bir marta bosish nazarda tutiladi.

Oynaning eng yukorisida dastur nomi yozilgan qator mavjud. Shu qatorning o'ng tomonida, burchakda uchta boshkaruv piktogrammalari (ramziy belgilar) joylashgan



Ulardan birinchisi — «**Svernut**» (Yigib olish) nomli piktogramma. Agar uning ustida sichqoncha bosilsa, ilova oynasi Masalalar paneli qatoriga («**Pusk**» tugmachasi joylashgan qatorga) turtburchak shakldagi tugmacha kurinishida (darchadek) yigib olinadi. Sichqonchaning chap tugmachasini «darcha» ustida bir marta bosish oynaning oldingi ulchovini va joylanishini tiklaydi.

Ikkinchisi — «**Razvernut**» (Yoyish) tugmachasi. Agar uning ustida sichqoncha bosilsa, ilova oynasi butun ekranga (yoki xujjat oynasi butun ilova oynasiga) yoyib tashlanadi. Sho'nga axamiyat berish kerakki, Masalalar paneli oyna kattalashgan xolda xam kurinib turadi. «**Razvernut**» piktogrammasi ustida sichqoncha bir marta bosilgandan keyin eski piktogramma urnida yangi, ikkita ustma-ust joylashgan

kvadrat shaklidagi piktogramma paydo buladi. Xosil bulgan piktogrammaning ustida sichqoncha bosilsa, oyna oldingi xolatiga kaytadi.

Uchinchisi — «**Zakrut**» (Yopish) piktogrammasi. U joriy ilova oynasini yopadi va bajarilayotgan ishning saklab kolinmagan natijalarini saklaydi. Word dasturini yopish uchun kurib chikilgan birinchi qator boshida joylashgan ilovaning sistema menyusi tugmachasini ikki marta bosish xam mumkin.

2) Oynadagi keyingi qator — Menyular qatori:



Unda kursatilgan menyu turlarining birortasi ustiga sichqoncha kursatkichini keltirib, chap tugmachasi bosilsa, ijro etilishi mumkin bulgan amaliy buyruqlar ruyxati chikadi. Tanlab olingan amaliy buyruq ijro etilishi uchun uning ustida sikonchani bir marta bosish zarur.

Barcha menyu turlariga karashli amaliy buyruqlarning tez-tez ishlatiladiganlari oson tanlanadigan piktogrammalar bilan belgilanib maxsus standart:



xamda bichimlash:



uskunalar panellariga joylashtirilgan.

Oynaning chetlarida vertikal va gorizontal xarakatlanirish tasmalarini kurish mumkin (4). Bu tasmalar xujjatning ekranga kirmagan qismini kurish imkonini beradi.

Gorizontal tasmada joylashgan chap tomondagi uchburchak ustida sichqonchaning kursatkichi bosilsa, xujjatning chap tomoni, o'ng tomondagi uchburchak ustida sichqonchaning kursatkichi bosilsa — xujjatning o'ng tomoni kursatiladi.

Vertikal tasmadagi tepaga va pastga karagan uchburchaklar matnning yunalishlariga mos qismni kursatib berishadi. Tasmada joylashgan



tugmachalarning ikki chetdagisi mos ravishda **Oldingi saxifaga utish** va Keyingi saxifaga utish amallarini bajaradi. Klaviaturada bu amalni Page Up va Page Down tugmachalari bajaradi. Urtada joylashgan tugmacha bosilsa, ekranda quyidagi jadval namoyon buladi:



Bu jadvalning xar bir katakchasi ma'lum bir buyruq piktogrammasidir. Mazkur tugmacha shu buyruqlarga tez utish uchun ishlatiladi.

3) Oynaning kuyi qismida xolat qatori joylashgan bulib, unda xujjat nechta saxifadan iboratligi, ekranda xujjatning nechinchi saxifasi aks ettirilganligi, kursor nechinchi qator, nechinchi urinda turganligi xakidagi va boshka ma'lumotlar aks ettiriladi.

Word oynasi ichida xujjat oynasi joylashgan. Uning xam eng yukorisida xujjat nomi aks etgan qator mavjud, burchakda esa sizga tanish bulgan piktogrammalar joylashgan.

Bu oynada gorizontal va vertikal chizgichlar mavjud. Chizgichning ok qismi kogozdagi matn joylanishi soxasidir. Pastki ikkita «**zajim**» («kiskich») yordamida bu soxa chegaralari uzgartiriladi. Yukoridagi «**zajim**» esa xat boshi joyini kursatadi. Uning joylanishini xam uzgartirish mumkin.

Gorizontal tasmalar qatori boshida turtta piktogramma joylashgan. Ular xujjat kurinishining bir xolatidan ikkinchisiga tez utish piktogrammalaridir.

1.2. XUJJATLARNI YARATISH

Avvalo matn nimalardan tashkil topadi, uning elementlari kaysilar kabi savollarga javob berib utamiz.

Matn — simvol, suz, qator, parcha, abzats (xat boshi), saxifa kabilardan tashkil topgan.

Simvol (belgi) — bu matnning eng kichik elementidir. U ulchov, yozilish usuli (oddiy, kalin, yozma, chizikli), rang, shrift, pozitsiya (yozilish urni) kabi xususiyatlarga ega.

Simvollar ketma-ketligi quyidagi ob'ektlarni tashkil etadi: suz, parcha, abzats, matn saxifasi.

Qator — shu nomli kod bilan tugagan simvollar ketma-ketligi. Qushimcha xususiyatlar: qator boshi va oxiri, matnda qator tartib rakami, qator uzunligi, qatorning chap va o'ng chegarasi mavjudligi.

Parcha — matnning belgilab olingan qismi.

Abzats — abzats belgisi bilan ajratilgan simvollar ketma-ketligi. Abzats simvoli chop etilmaydi, matnga **ENTER** tugmachasi bosilganda kiritiladi. Abzatsning qushimcha xususiyatlari: chap va o'ng chegaralari, abzats boshidagi siljish, qatorlar soni, qatorlar urtasidagi interval, varakdagi joylanishi.

Saxifa — bu saxifa kodi bilan tugallanuvchi qatorlar tuplami. Qushimcha xususiyatlari: saxifa tartib rakami, saxifadagi qatorlar soni.

Asosiy global ob'ekt — matnning uzidir. Qushimcha xususiyatlari: matn boshi va oxiri, matndagi qatorlar soni, matnning varakda joylanishi.

Komp yuterga matn kiritish qoidalarini quyidagicha:

Fayl nomi bo'limiga *Xl kiritilgan. Shu yusinda tanlash oynasida **EXCEL** ning xamma fayllari kurinadi, ya'ni joriy katalog nomini siz kataloglarni tanlash bulimining ung kismidan topishingiz mumkin. **EXCEL** da foydalani ladigan formatlari kengaytirilgan bulib, ular Xl xarflari bilan boshlanadi. **EXCEL** dagi fayllarning xajmi:

Kengaytmasi:	Ko'llanilishi:
XLS	- jadvallar uchun.
XLA	- ADD-in-makros uchun
XLt	- EXCELdagi formularlar uchun.

Siz uzingizga kerakli faylni tanlashni xoxlaysiz. Xush kaysi ishni bajarish lozim? Bu ishni bajarish juda oson. Biz bu ishni uzimizga kerakli faylni tanlaymizda, sichkoncha tugmasini bosamiz. Kataloglarning joriy yuli nomi bilan biz kataloglar oynasini topamiz. Agar siz faylingizni boshka katalogga yuklamokchi bulsangiz bu uchun siz sichkoncha tugmasini 2 marotaba bosish yuli bilan amalga oshirasiz. Chapda pastdagi burchakda tanlash maydoni joylashagan, u strelkani bosish orkali ochiladi. Siz u yerdan **EXCEL** ni kayta ishlovchi xar xil formatlarini topshingiz mumkin. Agar "Tol ko dlya chteniya" maydoni krest bilan belgilangan bulsa, siz xujjatni usha nomi bilan saklay olmaysiz, aks xolda karatilayotgan uzgarishdan chetlanasiz.

SOZDAT. Siz «**Fayl**» menyusidan «**Sozdat** » buyrugini tanlaysiz. U yordamida siz yangi bush kitobni ochishingiz mumkin.

YaNGI ISH KITOBI. Agar siz yangi ish kitobini ochish jarayonini tezashtirmokchi bulsangiz varak tasvirlangan tugma sizning ixtiyoringizda. Sichkoncha yordamida ishchi kitobini oyna sarlavxasi katoridan olishingiz va xarakatlantiri shingiz mumkin.

ZAKRIT. Agar sizga bir necha oynlar bilan ishlash nokulay bulsa, siz 1 ta yoki bir necha ishchi kitoblarni yopishimiz mumkin, yangisini ochishdan oldin, uning uchun menyu fayl zakro't buyrugini tanlaymiz. Agarsiz yopmokchi bulsangiz jadvalingizni xotirada saklamagan bulsangiz, ekranda mulokot oynasi paydo bo'ladi. Agar siz "DA" (YeS) tugmasini bossangiz xamma uzgarishlar xotirada saklanadi. Agar siz uzgarishlaringizni saklamokchi bulmasingiz "NET" (NO) tugmasini bosish orkali amalga oshiriladi. "OTMENA" tugmasi sizga yana ishchi kogoza kaytishga ruxsat beradi, kaysikim siz bundan oldin uni ishlab chikkan edingiz. Agar siz barcha ish kitoblarini yopgan bulsangiz, unda sizga yangi toza ish oynasi koladi. Karab turganingizdek, menyu katori juda kichiklashdi. Bizning ixtiyorimizda avaalgiday fayl menyusi koladi. Agar siz bu menyuni ochsangiz xam, albatta uni kiskargan xolda topasiz.

PEChAT. Albatta siz uz jadvalingizni "OSYaZAEMO'Y" kurinishida bulishini xoxlaysiz. Kanday kilib uni varakka tushirish mumkin. Uz jadvalingizni nusxalash uchun siz Fayl menyusidan «**Pechat** » buyrugini tanlang.

PRAVKA MENYuSI.

EXCELning yana asosiy menyularidan biri bu **Pravka**dir. Endi biz **Pravka** xususida biroz tuxtalib utamiz. Oddiy redaktorlash Menyusi sanalgan **Pravka**, WINWORDda berilganlarda juda xam kam fark kiladi. Bu oxirgi buyrukningning bekor kilinishi (fakat bittasini) va takroran uni bajarish, «**vo'rezat** », «**kopirovat** », «**vstavit** », «**nayti i zamenit** » operatsiyalarini tula standart xolda bajariladi. Lekin bir kancha spetsifikatsion imkoniyatlar xam bor. «**Zapolnit** » buyrugi (pastga, balandga, unggga, chapga) yacheyka burchagida formula yoki sonlarni kora kvadratga olib chuzish vazifasini bajaradi. «**Zapolnit po listam**» buyrugi ajratilgan yacheykalarni boshka ish kitoblari varaklariga usha manzil bilan nusxalashga imkon beradi. Kerakli varaklarni aloxida kilib ajratish uchun, uni sichkoncha yordamida birinchi zakladkasidan bosib turib oxirigicha davom ettirmok lozim. Agar varaklar ajralgan xolda bulsa, uni CTRL tugmachasini bosish orkali amalga oshiriladi.

«**Ochistit** » buyrugi yacheykalar orasidan fakat berilganlarni, formatlarni va izoxlarni tozalashga ruxsat beradi yoki xammasini birdaniga tozalashi mumkin.

"**Udalit** " buyrugi tulik tushuntirishga unchalik muxtoj emas. Unda varaklarni bekor kilish mumkin.

«**Spetsial naya vstavka**» buyrugi tulik tushuntirishga juda xam muxtoj. U yordamida biz berilgan jadvalni boshka jadvalga urnatishimiz kerak, va ular urtasida dinamik aloka urnatishimiz lozim. Ya'ni shunday urnatishimiz kerakki "istochnik" jadvalidagi uzgarishlar <priyomnik> jadva lida tasvirlangan bulsin. Bu ish xaddan tashkari oddiy bajariladi. Buning uchun 1 chi oynada "istochnik" 2 chisida esa "priemnik" ni urnatamiz. Kerakli yacheykani nusxalaymiz. (Menyu-Pravka-Kopirovat yordamida yoki CTRL-INS kombinatsiyasi, sichkonchani ung tugmachasini bilan). Endi (CTRL-TAB yoki okno menyusi bilan) «**Spetsial naya vstavka**» buyrugini chikaramiz. "Vstavit v svyaz " tugmasini bosib birdaniga usha berilganlarni kuyamiz. Va bu kaerdan kelganligini **EXCEL** ga tushuntirib beramiz. Formulalar katorida kuyidagi misol chikadi. q[table 1.xls] list 1! \$ E \$ 13 Kurib turganingizdek, kavs ichida "istochnik" faylning nomi berilgan, keyin esa yacheyka olingan varakning nomi va uning absolyut adresi.

VID MENYuSI.

Tartiblangan yukori yoki pastki kolontitulga utish topshiriklari.

- 1) EXCEL betini tanlang.
- 2) **Vid** menyusidan «**Kolontituli**» buyrug'ini tanlang.
- 3) Yukori yoki pastki kolontitul maydonidan kerakli kolontitulni tanlang.

Kengaytirilgan va xar xil tipidagi fayllarni kurish.

- 1) Kerakli faylni kurish uchun <Moy komp yuter oynasini yoki Windows yulboshchisini oching.
- 2) Vid menyusidan «**Parametri**» buyrugini tanlang.

Barcha tipidagi fayllarni kurish uchun <**Otobrajat**> buyrugini tanlang, barcha fayllar Prosmotr bulimida ma'lum buladi.

3) Barcha kengaytmali fayllarni kurish uchun <Ne otobrojat > maydonidan bayrokchani olib tashlang, Prosmotr bulimidan MS-DOS operatsion sistemasida ruyxatga kiritilgan kengaytmali fayllarni ko'rish mumkin.

Pechat betida razmer va diagramma xolatining uzgarishi. Agar diagramma joriy betda kiritilgan bulsa uni boshka kerakli razmer buyicha kuchirish yoki urnatish uchun, mo'sh yordamida betlarga ajratish rejimida amalga oshirish mumkin. Buning uchun mo'sh tugmasini diagramma betining bulimi tashkarisida bosib, so'ngra **Vid** menyusidan «**Razmetka stranitsi**» buyrugini tanlang.

Diagramma beti bilan ishlayotgan vaqtda diagramma bo'limining ulchami va masshtabini uzgartirish mumkin, uning pechat betidagi urnini va uning kurinishini oldindan oynada kurish mumkin. Diagramma betidagi pechat parametrlarini urnatmokchi bulsangiz bo'limni belgilab, sung Fayl menyusini tanlang. «**Parametro' stranitso'**» buyrugini tanlab Diagramma bulimida kerakli parametrlarni urnating. Diagramma maydoni ulchamini betda uzgartirish sichkoncha yerdamida amalga oshiriladi, buning uchun Diagramma bulimidan «**Nastroyka**» buyrugini tanlab betga kaytish uchun OK. tugmasini bosing.

Masshtab.

Xar bir oynada siz kulay va kerakli razmer kurinishini tanlab olishingiz mumkin. Buning uchun **Vid** menyusidan «**Masshtab**» buyrugini tanlang. Bu mulokot ikki opsiyadan iborat: belgilashdan va ishlatilashdan. Birinchisi avtomatik ravishda ekranda fakat belgilangan yacheykalar namoyon bulishi uchun, masshtabni kattalashtirishni tanlaydi, Ikkinchisi yopdamida siz izingiz xoxlagan foizda kupaytirish yoki kurinishni kamaytirishingiz mumkin.

Uskunalar oynasi.

Kerakli uskunalar oynasini akslantirish uchun **Vid** menyusidan «**Paneli instrumentov**» buyrugini tanlang.

FORMAT MENYuSI

Grafik ob'ektga anik ulchamlarni berish.

1. Ulchamlari uzgartiriladigan grafik ob'ektni belgilab oling.
2. **Format** menyusidan belgilangan ob'ekt tipiga karab tugri keladigan buyrugini tanlang, masalan, Avtofigura yeki Risunok, shundan sung ulchamni tanlang.
3. Masshtab gruppasidagi «Vo'sota» va «Shirina» maydonidan kerakli parametrlarni kirgizing. Maslaxat. Ob'ektning ulchamlari uzgartirilgandagi uzgarishlarni saklab kolish uchun bayrokchani kuyish kerak.

SERVIS MENYuSI

Orfografiyani tekshirish va xatolarni avtomatik tugrilash.

Ish kitobining barcha varaklarida orfografiya tekshirishini bajarish mumkin. Agar tekstda asosiy lugatda bulmagan suzlar ishlatilsa (masalan maxsus terminlar) ularni kushimcha lugatga kushish mumkin. U xolda fakat biz kiritgan suz ikkala lugatda xam bulmasagina biz kiritgan suz xato xisoblanadi.

«**Avtozamen**a» bizga kiritilishda kup uchraydigan xato suzlarni tugrilashga yerdam beradi; masalan, <avsh> ni <vash> ga yeki <chtoo'b> ni <chtobo'> ga uzgartirish mumkin. Bunday suzlar ruyxatini mustakil davom ettirish mumkin.

Microsoft Excel dagi lugatlar formati va avtozamenalar ruyxati **Microsoft Office** dagi programmalar bilan tugri keladi.

Orfografik xatolarni tekshirishda varak kislari.

Joriy varakda orfografiya belgilangan yacheyka va ularga berilgan izoxlar da, diagramma va yezuvlarda, tugma va kolontitullarda tekshiriladi. Ximoyalangan varaklarda, formula va tekstlarda orfografiya bajarilmaydi. Formulalar katoridagi orfografiya agar formulalar katori joriy bulsa tekshiriladi.

Avtomatik almashtirishni bekor kilish.

1. **Servis** menyusida **Avtozamen**a buyrugini tanlang.

2. **Avtozamenani** bekor kilish uchun kiritilishdagi «**Zamenyat -da**» bayrokchani oling.
Uzgarishlarning boshka kurinishlarini bekor kilish uchun kolgan bayrokchalarni xam oling.

Ustundagi yacheykalarni avtomatik tuldirishni yekish va uchirish.

1. **Servis** menyusidan **Parametro**’ buyrugini tanlang, sungra Pravkani tanlang

2. **Avtozapolneniyaga** ruxsat berish uchun, Avtozapolneniyaga bayrokchani urnating.

3. **Avtozapolneniyani** bekor kilish uchun byrokchani oling.

Bush bulmagan yacheykalarni kayta yozuvkilish xakidagi ma`lumotni chikarishni yekish va uchirish.

DANNO'E MENYuSI.

Foydalanuvchining saralash tartibini xisobot jadvalida kullanilishi

1. Saralash kilinadigan maydonni belgilang.

2. **Danno'e** menyusidagi «**Sortirovka**» buyrugini tanlang.

3. **Parametro**’ tugmasini bosing.

Izox:

Foydalanuvchi saralash tartibini tuzish uchun kushimcha ma`lumotlarni olish uchun tugmani bosing. Odatda xronologik saralash kilinadigan elementlarni uzida saklagan xisobot tablitsalari masalan <Yanv>, <Fev>, <Mart> - **Microsoft Excel** da foydalanuvchi saralash tartibi avtomatik ishlatiladi. Agar keyin element maydonlari boshkacha kuchirilgan yeki tartiblangan bulsa, navbatdagi tartiblashni foydalanuvchi sortirovka tartibi

buyicha kayta tiklash mumkin.

Ruyxatni kengaytirilgan filtr yordamida filtrlash

Ruyxatni kengaytirilgan fil tr yerdamida fil trlash uchun ruyxatning ustunlari uzini sarlavxasiga ega bulishi kerak. Varakda xam kamida uchta kator ruyxat boshida bush bulishi kerak. Bu katorlar tanlash shartida diapazon sifatida ishlatiladi.

1. Sarlavxa ruyxatidan filtrlanishi kerak bulgan ustunlarni nusxasini oling.

2. Nusxasi olingan ustunlar sarlavxalarini tanlashshartidagi birinchi bush katorga kuying.

3. Sarlavxa tagidagi katorga tanlovning kerak kriteriya shartlarini kiriting. Shart va ruyxat urtasida minimum bitta bush kator borligiga ishonch xosil kiling.

4. Ruyxatdagi yacheykani kursating.

5. **Danno'e** menyusidagi «**Filtr**» punktini tanlang, keyin «**Rasshirenniy filtr**» buyrug'ini tanlang

6. Keraksiz katorlarni yashirib fil tratsiya natijalarini kursatish uchun kalitni «**Filtrovat** » xolatiga kuying. Filtrlangan katorlarni varakning boshka kismiga kuchirish uchun «**Obrabotka**» kalitini «**Skopirovat**» xolatiga kuying

7. «**Kriteriyalar Diapozoni**» maydoniga uzida ustunlar sarlavxalarini saklagan shartli tanlash diapozonni kiriting. Shartli tanlash diapozoni vaktida kengaytirilgan filtr Mulokot oynasini olib tashlash uchun yigish tugmasini bosing. Oralikni tanlash vaktida «**Rasshirenno'y fil tr**» mulokot oynasini uchirishda Sverto'vaniya mulokotovogo okna: tugmasini bosing.

Izox: Agar betda «**Kriterii**» nomli oralik bulsa, «**Diapazon usloviy**» maydonida avtomatik ravishda paydo buladi, va bu oralikda sso'lka paydo buladi.

Filtrni qo'llash uchun ruyxatdagi qatorlarning ko'rinishi. Filtrlar betda fakat bitta ruyxatni kiritish uchun qo'llaniladi.

1) Filtrlaydigan ruyxatda yacheykani kursating.

2) **Danno'e** menyusidan «**Fil tr**» punktini tanlab, sung avtofil tr. buyrugiga uting.

3) Kerakli ma`noni anglatuvchi katorlarni fil trlash uchun, kerakli ma`lumotlar joylashgan strelkali tugmani bosing.

4) Ruyxat ma`nosini tanlang.

5) Boshka ustunlarda kushimcha chegaralangan ma`nolarni kiritish uchun 3va4 boskichlarni takrorlang.

Ruyxatni bitta ustunda ikkixil ma`noda kullash uchun strelkali tugmani bosib «**Uslovie**» punktiga uting.

Forma yordamida yozuvlarni qo'yish.

1 Yozuvlarni qushish kerak bulgan yacheykadan oldingi yacheykani kursating

2 **Danno'e** menyusidan **Forma** buyrug'ini tanlang.

3 Dobavit tugmasini bosing.

4 Yangi yozuvlarni maydonda kiritish uchun **TAb** tugmasini boshka maydonga kuchirish uchun qo'llang. Oldingi maydonga utish uchun **ShIFT+TAB** tugma sini ishlating.

5 Yozuvlarni ruyxatga kushish uchun **ENTER** tugmasini bosing.

OKNO MENYuSI. yopiq kitoblar

1) Kerakli kitobni oching.

2) **Okno** menyusidan «**Skrit**» buyrug'ini tanlang.

Izox:

Microsoft Excel dan chikish vaqtida yashiringan kitobni xotirada saklash xakidagi savolga Xa deb javob bering. Keyingi ochishda shu kitob yashiringani cha koladi.

Bir vaktning uzida bir necha bet yoki kitoblarni kurish.

1) Kurish kerak bulgan kitobni oching. Bir necha joriy betni chikarish uchun **Okno** menyusidan «**Novoe**» buyrugini tanlang. Xuddi shu tarzda xamma kerakli varaklarni ekranga chikaring.

2) **Okno** menyusidan «**Raspolojit**». buyrugini tanlang.

3) Kerakli parametrlarni tanlang. Joriy kitobda joylashgan varaklarni akslantirish uchun bayrokchani urnating. Parol kuyidagicha urnatiladi:

1). Ximoya kilinishi kerak bulgan ish kitobi ochiladi;

2). <**Fayl**> menyusidan <**Soxranit kak?**> buyrugini tanlanib, keyin parametrlar tugmasi bosiladi;

3). ximoya darajasi tanlanadi;

4). ximoyani faollashtirish uchun <kitob> yopiladi. Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, parol unutilsa, ish kitobini ochib bulmaydi.

Parolni bekor kilish usuli:

1). parol olinadigan ish kitobi ochiladi;

2). <**Fayl**> menyusidan <**Soxranit kak?**> buyrugini tanlanadi;

3). «Parametro» tugmasi bosiladi;

4). parol oynasiga parol kiritiladi;

5). parolni bekor kilish uchun **DELETE** bosiladi;

6). mulokot oynasida <**Soxranit**> tugmasi va **OK** bosiladi.

Nazariy savollar:

1. EXCEL dasturini ishga tushirish va tugatish tartibi haqida so'zlang

2. EXCEL oynasi ko'rinishini tasvirlab bering. Gorizontall menyusni nimalardan iborat

3. EXCEL ekranini moslashtirish qanday amalgam oshiriladi

4. EXCEL uskunalari oynasi nimalardan iborat

Amaliy mashg'ulot o'tkazish uchun Topshiriqlar.

1. Yangi fayl hosil qiling, uni ma'naviyatchi.xls nomi bilan saqlang.

2. EXCEL oynasidagi listni albomnaya yoki knijnaya holatiga o'tkazing.

3. Matn kiriting. A ustunni shunday kengaytiringki, unda barcha matnlar joylashsin.

4. Jadvalning ichki va tashqi chegaralarini ramkaga olish uchun uni belgilang.

5. Faylni standart asboblarning panelidagi «**Soxranit**» tugmasi yordamida saqlang.

6. Kontekst menyusining **Vstavit** va **Udalit** buyruqlari bilan ishleng. 5-7 satrlar orasiga satr kiriting. V va S ustunlar orasiga ustun kiriting, 7-satrni va S ustunni olib tashlang. Hujjatni yoping.

7. Jadvalda yozilgan matnni **Baltica Uzb** shriftiga o'ting, shrift o'lchami **12 pt** bo'lsin.

8. Jadvalning birinchi qatorida tug'ilgan yil, kun va oyni yozing.

9. (EXCEL dasturida). Quyida keltirilgan jadval buyicha har bir talaba necha so'm stipendiya oladi?

	Talabani nomi	Oylik maoshi (so'm)	15% (so'm)	Pen.fon (3%so'm)	qo'lga yegishi (so'm)
	Abdullaev Akmal	15000			
	Axmedov Kodir	10500			
	Botirov Shavkat	17300			
	Valiev Karim	15000			

	Jo'raev Abdulaziz	10500			
	Inomov Botir	9750			
	G'ofurova Nasiba	10500			
	Jami				

10. **(EXCEL dasturida).** Yuqorida keltirilgan jadval bo'yicha Gurux talabalarining yillik jami stipendiyasini hisoblang.

11. **(EXCEL dasturida).** Ishchilarni oylik maoshini diagramma bo'yicha ifodalang.

12. Hosil qilgan hujjatingizni chop eting.

13. Biror korxonaning kunlik mahsulot tayyorlash o'sish (kamayish, o'zgarmas) bo'yicha diagramma tuzing.

14. Fakultet guruhlarini informatikadan(fanlar bo'yicha, har bir talabaga alohida fan) baho bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlang (o'rtacha hisobda).

Foydalanish uchun adabiyotlar ruyhati:

1. S.I.Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent,1998 ,224 bet
2. Yu.Shafrin Osnovo' komp yuternoy texnologii. Moskva 1997.
3. M. Aripov, Muxammadiev., "Informatika, informatsion texnologiyalari ", Uzbekiston milliy kutubxonasi,2004y, 276 bet
4. Aripov M., Xaydarov A., «Informatika», T., O'zMU, 2002 yil , 600 bet

Amaliy mashg'ulot № 10

Microsoft Excel: Microsoft Excel da Arifmetik amallar bajarish, jadval dasturida funksiyalar bilan ishlash, diagrammalar bilan ishlash.

MASHG'ULOTNING MAQSADI: Microsoft Excel: Microsoft Excel da Arifmetik amallar bajarish, jadval dasturida funksiyalar bilan ishlash, diagrammalar bilan ishlashni o'rganish.

MASHG'ULOTNING JIHOZI: ko'rgazmali material:

- a) kompyuter qurilmalari.
- b) Excel dasturi, gorizontall menyusi.
- v) Funktsiyalar bilan ishlash

MASHG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium kompyuterlari bilan jihozlangan kompyuter sinfi, Windows operatsion tizimi va **MICROSOFT EXCEL** dasturi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

- a) Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.
- b) Yo'qlama qilish.

v) **Avvalgi mashg'ulotlarda o'tilganlarni takrorlash bo'yicha suhbat o'tkazish:** Excel dasturi haqidagi ko'rgazmali quroldan foydalanish. Menyuning vazifalari, gorizontall menyu bilan

ishlash, elektron jadval bilan ishlash, diogrammalar bilan ishlash va turli amaliy dasturlar haqida savol-javoblar.

g) **Yangi mavzuning bayoni:** Excel dasturida ishlashni kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi.

d) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

Amaliy topshiriqning qisqacha bayoni:

Agar siz kiritilgan formulani taxrirlamoqchi bulsangiz, buni bir necha usulda bajarishingiz mumkin

1. katakchada saqlanuvchi formulani taxrirlash uchun unga sichqoncha ko'rsatkichini ikki marta bosing.
2. katakchani tanlab F2 tugmasini bosing.
3. katakchani tanlab, formulalar qatorida sichqoncha ko'rsatkichini ikki marta bosing.

Operatorlar.

Barcha matematik funktsiyalar maxsus simvollar yordamida dasturlarda yoziladi, ularni operatorlar deb yuritiladi. Quyidagi jadvalda EXCEL operatorlarning ruyxati berilgan.

EXCEL operatorlari:

Operator	Funktsiya	Misol
Arifmetik	Operatorlari.	
Q	Kushish	qA1Q1
-	Ayirish	q4-S4
*	Kupaytirish	qA3*X123
G'	Bulish	qD3G'Q6
%	Foiz	q10%
^	Darajaga kutarish	q2^4
Tenglik	Operatorlari	
q	Teng	
<	Kichik	
>	Katta	
<q	Kichik yoki teng	
>q	Katta yoki teng	
<>	Teng emas	
Bog'lanish	Operatorlari	
:	Oralik	SUMM(A1:S10)
;	Tenglashtirish	SUMM(A1;A2;A6)
Birlashtirishning	Tekstli operatori	
&	Tekstlarni birlashtirish	

Tekstlarni qushish

Tekstni qushish operatori xujjat namunasini tuzish vaktida, masalan sanani xar doim qo'lda kiritmaslik uchun qo'llaniladi,

Tekstli operatorni dastur tugri tushunishi uchun, siz tekstni katorini formula singari kiritib uni tenglik bilan belgilashingiz kerak. Tekstli operator kavs ichiga olinadi. Agar siz shu ishlarni bajarsangiz, formula kiritishingizda # NAME ? xato xakida ma'lumot chikadi. Bu xato EXCEL berilganlarga yul topolmayotganligini bildiradi. Shu tartibda siz dasturga tekst kullashni kursatasiz.

Master funktsiyasi

Ctandardnaya instrumentlar panelida **Summa** tugmasi mavjud. Natija kiri tiladigan yacheykani tanlab, **Summa** tugmasini bosing. Yacheyka va formulalar katorida Summa funktsiyasi paydo buladi. shundan sung kushiluvchilarning yacheyka adreslarni kiriting yoki sichkoncha yordamida yacheykani belgilang. **ENTER** klavishini bosing. Bu funktsiyani chakirishning yana bir yuli Menyudan **Vstavka-Funktsiya** buyrugini tanlashdan iborat.

Master funksiyasini tez chakirishning ikki usuli mavjud SHIFT F3 kombinatsiyasi yoki uskunalar oynasidagi tugma yordamida. Master funksiyasining birinchi mulokoti tematik printsip asosida tashkil etilgan. Chap ruyxatda tematik guruxlarning nomi mavjud.

Ung tomondan kerakli nomni tanlaganizda shu guruxdagi funksiyalar nomining ruyxati paydo buladi. Funksiyani chakirish, uning nomiga sichkonchani ikki marta bosish bilan amalga oshadi.

Diagramma uskunalar oynasi.

Diagrammani Diagramma masteri yordamidan tashkari balki uni tez tuzishni Diagramma instrumentlar paneli yordamida bajarish mumkin. Bu panelni ekranda Vid menyusidan «**Paneli instrumentov**» buyrugini tanlash orkali amalga oshiriladi.

Diagrammalar turlari ruyxatini ochish uchun ma'lumotlarni belgilab pastga yunaltirilgan strelkali tugmani instrumentlar panelida bosing. Endi tekis diagramma grafigini tuzamiz. Diagramma turini tanlab, ishchi varagida tugri burchakni kerakli ulchamda berib biz master diagrammani kuyveramiz. Uyordamida rasmda kursatilgan diagrammani olamiz.

Diagrammani taxrirlash.

Endi diagrammani taxrirlashni boshlaymiz. Tulik ma'lumotga ega bulish uchun diagrammaning ustki rangi uni urab olgan maydon rangidan fark kiladi. Buning uchun diagrammani belgilang **Format** menyusidan «**Vo'delennaya oblast diagrammo**» buyrugini tanlang. Shundan sung ekranda mulokot paydo buladi. Shrift bulimini tanlab siz diagrammadagi tekst uchun shrift ulchamini uzgartirishingiz mumkin. Vid vklasida esa shu vkladkaning chap tomonida diagramma ramkasi uchun uning kalamining rangini va kalinligini uzgartirishingiz mumkin. Oynaning ung tomonida bizning diagrammamizni buyash mumkin bulgan opsiyalar keltirilgan. «Primer» maydonida siz tanlangan variant paydo buladi. «**Formatirovanie oblasti diagrammo**» mulokotini bir necha usulda chakirishingiz mumkin:

1. Ctrl+1 tugmalar kombinatsiyasi yordamida:
2. «**Format**» menyusidan «**Videlennaya oblast postroeniya**» buyrugini tanlab

Excelda tayyorlanadigan ma'lumotli jadvallar matn yoki sonlar bilan to'ldirilishini aytib o'tdik. Ba'zan yacheykalardagi qiymatlar ustida ayrim hisoblashlarni bajarish zaruriyati tug'iladi, bunday vaziyatda formulalardan foydalaniladi. Excel yacheykasidagi formulaning dastlabki simvoli hamma vaqt "=" (tenglik) hisoblanadi. So'ngra arifmetik operatsiya belgilari bilan o'zaro bog'langan arifmetik ifodalar teriladi. Masalan, H8 yacheykasida $=A5+4*B6$ formula yozilgan bo'lsa, H8ning qiymati A5 va 4ta B6ning yig'indisidan iboratligidan dalolat beradi.

Excelda ishlatiladigan arifmetik amal belgilari quyidagilar:

+ (qo'shish), - (ayirish), * (ko'paytirish), / (bo'lish) va h.z

Nazariy savollar

1. Formula qo'yish va ularni taxrirlash qanday amalgam oshiriladi.
2. EXCEL operatorlari qaysilar.
3. EXCEL funksiyalari.
4. Diagrammalar tuzish qanday amalgam oshiriladi

Amaliy topshiriq :

1. Jismoniy shaxsning jamg'arma bankiga qo'ygan summasidan olgan foydasini hisoblang (so'm hisobida)
2. "Jinoyat huquqi" kafedrası professor-o'qituvchilarining 2007-2008 o'quv yili yuklamalarini bajarilishini tayorlang

Foydalanish uchun adabiyotlar ruyhati:

1. S.I.Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent, 1998, 224 bet
2. Yu. Shafrin Osnovo' komp yuternoy texnologii. Moskva 1997.
3. M. Aripov, Muxammadiev., "Informatika, informatsion texnologiyalari", Uzbekiston milliy kutubxonasi, 2004y, 276 bet
4. Aripov M., Xaydarov A., «Informatika», T., O'zMU, 2002 yil, 600 bet

Amaliy mashg'ulot № 11

Microsoft Excel: Microsoft Excel da amaliy programmalar (AP) mutaxassislikka doir masalalar yechish

MASHG'ULOTNING MAQSADI: Microsoft Excelda amaliy programmalar (AP) mutaxassislikka doir masalalar yechish. Xato va kamchiliklarni bartaraf qilish.

MASHG'ULOTNING JIHOZI: ko'rgazmali material:

- a) Kompyuter qurilmalari.
- b) Excelda amaliy dasturlar.
- v) Mutaxassislikka oid masalalar yechish

MASHG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium IV kompyuterlari bilan jihozlangan kompyuter sinfi, Windows operatsion tizimi va EXCEL dasturi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

- a) **Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.**
- b) **Yo'qlama qilish.**
- v) **Avvalgi mashg'ulotlarda o'tilganlarni takrorlash bo'yicha suhbat o'tkazish:** Excel dasturi haqidagi ko'rgazmali quroldan foydalanish. Jadval, formula va funktsiyalar bilan ishlash va turli amaliy dasturlar haqida savol-javoblar.
- g) **Yangi mavzuning bayoni:** EXCEL dasturida ishlashni kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi.
- d) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.
- e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

Amaliy mashg'ulot o'tkazish uchun Topshiriq

1-Topshiriq

103-Huhuqshunos guruhi talabalarining oylik stipendiyasidan olinadigan soliq hisobini hisoblang va jadvalni to'ldiring

№	Talabaning ismi va sharifi	Stipendiya qiymati	15% pod.solig'i	1% sug'urta doirasi fondi	1% kasaba uyushmasi	Qo'lga oladigan summasi
1	Raximov O	62000				
2						
3						

2-Topshiriq

1 haftalik (kunlik) harajatlaringizni hisoblang va jadvalni to'ldiring

Harajat maqsadi	1-kungi harajat summasi	2-kungi harajat summasi	...	6-kungi harajat summasi	Jami harajat summasi
Ertalabki nonushta	800	700	...	600	...
Tushlik	1500	1400			
Kechki ovqat	1000	1200		1200	
Boshqa harajatlari	-	1000		-	

3-Topshiriq

Huquqshunoslik fakultetining talabalari stipendiyasini hisoblang va jadvalni tuzing

Bosqich	Talabalar soni	Stipendiya miqdori (so'm)	Jami olinadigan stipendiya
4-bosqich	80 ta	4800000	
3-bosqich	125 ta	7500000	
2-bosqich	140 ta	8400000	
1-bosqich	116 ta	6960000	

Amaliy mashg'ulot № 12

Faillarni arxivlash: arxivlovchi dasturlar, imkoniyatlari.

MASHG'ULOTNING MAQSADI: Faillarni arxivlash: arxivlovchi dasturlar, imkoniyatlari bilan ishlash. Xato va kamchiliklarni bartaraf qilish.

MASHG'ULOTNING JIHOZI: ko'rgazmali material:

- a) Kompyuter qurilmalari b) arxivatorlar, arxivlovchi dasturlar

MASHG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium IV komp'yuterlari bilan jihozlangan komp'yuter sinfi, Windows operatsion tizimi va arxivlovchi dasturlar

MASHG'ULOTNING BORISHI:

- a) Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.

- b) Yo'qlama qilish.

v) Avvalgi mashg'ulotlarda o'tilganlarni takrorlash bo'yicha suhbat o'tkazish: Word, Excel dasturi haqidagi ko'rgazmali quroldan foydalanish. Turli amaliy dasturlar haqida savol-javoblar.

g) **Yangi mavzuning bayoni:** Katta hajmdagi fayllarni arxivlash bosqichlarini kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi.

d) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

Amaliy mashg'ulotning qisqacha bayoni

Arxivlangan fayl-bu faylning ixtamlangan,siqilgan holati. Amalda fayllar bilan ishlashda, yani fayllarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda, nusha olishda, saqlab qo'yishda, electron pochta orqali axborot yuborishda bunday fayllar bilan ishlash zarurati tug'iladi.

Avvalo arxivlash bilan bo'g'liq bo'lgan asosiy tushunchalarni kiritamiz,keyin arxivlashuchun ko'p qo'llaniladigan asosiy arxivatorlar bilan tanishamiz

Fayllarni arxivlash – fayllarni ma'lum bir qoida asosida siqilgan, ixtamlangan holatda diskda saqlash demakdir. Arxivlash qattiq disk ishdan chiqishi yoki faylni tasodifan o'chirilishi sodir bo'lgan hollarda joriy faylni qayta tiklash uchun yordam beruvchi vosita sifatida ham qo'llaniladi. Arxivlash BACKUP paket programmasi orqali ham amalgam oshiriladi. Bu programma haqidagi to'la ma'lumotlarni spracka bo'limidagi “fayllarni arxivlash” kalit so'zli komanda orqali olish mumkin.

Umuman arxivlash- bu uzoq muddat saqlanuvchi fayllar, kam qo'llaniladigan, eski hujjatlar, har hil materiallar, adabiy va ilmiy maqolalar, rasm va boshqalarni saqlash uchun qo'llaniladi. Arxiv bir qancha qismlardan iborat bo'lishi va unda xar bir fayl aloxida ko'rinishda saqlanishi mumkin. Bunday arxiv fayllari ko'p tomli deb ataladi. Shunday arxivlardan katta hajmli ma'lumotlarini qismlarga bo'lib disketalarga sig'adigan, qulay ko'rinishga keltirish uchun foydalanish mumkin. Bunday har bir qism fayl ham arxiv fayli deb ataladi.

Arxiv hosil qilish jarayoni arxivlash deyiladi. Siqilgan faylni eski holiga qaytarish arxivlarni ochish deyiladi. Arxivlashni fayllar guruhi, to'liq fayllar strukturasi bo'yicha yoki papkalar bo'yicha ham qilish mumkin. Arxivlanuvchi fayllarda papkalar ko'p bo'lsa, ularni oldin bitta papkaga yig'ib olish ishni osonlashtiradi. Electron pochta va Internet muhitida arxivlangan holdagi ma'lumotlarni almashish bir qator qulayliklar yaratadi.

Arxivlash jarayonida ayrim fayllar juda yaxshi ixtamlanishi, ba'zi hollarda arxivlash natijasida boshlang'ich fayl 10-20 baravar siqilishi ham mumkin. Masalan, programma fayllariga nisbatan matn va rasm fayllari ancha yaxshi ixtamlanadi.

Xozirgi kunda har hil arxivatorlar bir-biridan siqish darajasi, tezligi, foydalanishda qulayliklari, imkoniyat darajasi bo'yicha farq qiladi. Foydalanuvchi har xil turdagi arxiv fayllarini kengaytmasi bo'yicha farqlaydi. Siqish turi shu arxivning formati deyiladi.

Arxivlangan fayl arxivda qaysi fayllar borligini bildiruvchi sarlavhaga ega bo'ladi. Arxiv sarlavhasida unda saqlanuvchi har bir fayl uchun quyidagi ma'lumotlar saqlanadi:

- fayl nomi
- fayl saqlanuvchi catalog haqida ma'lumot

- faylning oxirgi marta qayta ishlangan sanasi va vaqti
- faylning diskdagi va arxivdagi o'lchami
- arxivning to'liqligini tekshirishda ishlatiladigan har bir faylning tsiklik tekshirish kodi

Arxiv fayllar ham oddiy fayllar kabi nomlanadi va maxsus kengaytmaga ega bo'ladi.

Masalan, .zip, .rar, .arj. huddi shuningdek, zip va arj larga o'hshash formatlaydigan lha (X. Yoshizaki) arxivatori ham mavjud.

Nazariy savollar:

1. Arxiv fayl nima?
2. Arxivlash deganda nimani tushunasiz
3. Qanday arxivatorlarni bilasiz?
4. Arxiv fayllarni kengaytmasi qanday bo'ladi?

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

Topshiriq-1

1. WC dasturida katalog yarating. Uni arxiv deb nomlang. Katalogga bir nechta fayllarni nusxalang. Shu joyga katalogni .zip kengaytmasi bilan arxivlang
2. Moy kompyuter orqali C: diskda papka hosil qiling. Papkaga bir nechta fayllarni nusxalang. Shu joyga katalogni arxivlang
3. MS DOC operatsion sistemasida katalog yarating. Katalogga bir nechta fayllarni nusxalang. Ushbu katalogni .arj kengaytmasi bilan arxivlang
4. Provodnik orqali D: diskda papka hosil qiling. Papkaga bir nechta fayllarni nusxalang. Shu joyga katalogni .rar kengaytmasi bilan arxivlang
5. WC dasturidagi arxivlangan "Arxiv" katalogini arxivdan oching
6. Moy kompyuter orqali C: diskdagi arxivlangan papkani arxivdan oching
7. MS DOC operatsion sistemasidagi arxivlangan katalogni arxivdan oching
8. Provodnik orqali D: diskdagi arxivlangan papkani arxivdan oching.

Foydalanish uchun adabiyotlar ruyhati:

1. S.I.Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent,1998 ,224 bet
2. Yu.Shafrin Osnovo' komp yuternoy texnologii. Moskva 1997.
3. M. Aripov, Muxammadiev., "Informatika, informatsion texnologiyalari ", Uzbekiston milliy kutubxonasi,2004y, 276 bet
4. Aripov M., Xaydarov A., «Informatika», T., O'zMU, 2002 yil , 600 bet

Amaliy mashg'ulot № 13

Viruslar va antivirus dasturlari: imkoniyatlari, farqlari.

MASHG'ULOTNING MAQSADI: Virus bilan zararlangan fayllarni antivirus dasturlari yordamida tozalashni o'rganish.

MASHG'ULOTNING JIHOZI: 2 ta ko'rgazmali material:

- a) kompyuter qurilmalari. b) Antivirus dasturlari.

MASHG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium IV kompyuterlari bilan jihozlangan kompyuter sinfi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

a) Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.

b) Yo'qlama qilish.

v) **Avvalgi mashg'ulotlarda o'tilganlarni takrorlash bo'yicha suhbat o'tkazish:**

Windows OT haqidagi ko'rgazmali quroldan foydalanish. Ish stoli, masalalar paneli, bosh menyuning vazifalari, kompyuterlarni o'chirish va yoqish, turli amaliy dasturlar haqida savol-javoblar.

g) **Yangi mavzuning bayoni:** Kompyuter viruslari va antiviruslar haqida ma'lumot berish.

d) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

Amaliy mashg'ulotning qisqacha bayoni

Kompyuter virusi - u maxsus yozilgan programma bulib, u boshqa programmalarga kushilishi (ya'ni uni zararlashi) mumkin, shuningdek kompyuterda noma'kul xarakatlarni amalga oshirilishi mumkin. Ichida virus bulgan programma "zararlangan" deyiladi. Bunday programma ishni boshlaganda boshkaruvni avvalo virus amalga oshiradi. Virus boshka programmalarni topadi va zararladi, shuningdek kandaydir buzgunchi xarakatlarni bajaradi (masalan, diskdagi fayllarni va shu fayllar joylashgan jadvalni ishdan chikaradi, operativ xotirani bular - bulmas axlat bilan tuldiradi. Virus yashirish maksadida programmani zararlantirish xarakatlari xar doim xam bajarilavermaydi. Ular fakat muayan sharoitda amalga oshadi. Virus kerakli xarakatlarni bajarib bulgandan sung, u boshkaruvni usha programmaga beradi (virus shu programmani ichida yotadi) va u oldingidek ishlayveradi. Shu bilan bir katorda virus bilan zararlangan programma xuddi viruslanmagan programma kabi faoliyat kursatadi.

Mavjud bulgan viruslarning kupchiligi yadro sistemali fayllarni afzal kuradilar, chunki kup zamonaviy kompyuterlarda fayllar sistemasi bir xil nomlanadi. Masalan, viruslar aksariyat xollarda, Sommand.com fayliga birlashadilar va DIRkommandasi bilan boshka disk va direktoriya larga tarkaladilar Kup xollarda sistemaning zararlaniishi kiritish-chikarish jaraeniga murojaat kilganda ruy beradi

Aslini olganda, viruslar sistemalarga birikib ketish uchun xar kaday yullarni ishlatishadi,shuning uchun xam uk utmaydigan sistemalar yukdir.

Personal kompyuterlarga viruslar kirib ketishining asosiy yuli bulib, zararlangan disketalar xizmat kiladi. Viruslar borgan sayin beshafkat va xech narsadan kurkmaydigan bulib borayapti,xatto eng yetuk viruslarga karshi programmalar xam ular bilan kurashishga ba zan ojizlik kilayaptilar. Shunday viruslar mavjudki ular energiyaga boglik bulmagan xotiraga yashirinib olib, sistemani tozalashda juda katta kiyinchiliklar tugdiradilar. Xatto xakikiy firma belgisiga ega bulgan,sikilgan dastur xam virusdan xoli ekanligiga xech kim kafillik bera olmaydi. Viruslarni SD-ROM disklarning shtampovka jaraenida xam urnashganlik xollari mavjuddir.

Virus asosan 4 ta fazaga ega: uxlash fazasi, kupayish fazasi, ishga kirish fazasi va vayron kilish fazasi. Virus ixtirochisi asta-sekinlik bilan foydalanuvchining ishonchini kozonish maksadida ,uxlash fazasini ishlatish mumkin,chunki bunda virus kupaymaydi va ma lumotlarni buzmaydi. Kupayish fazasida programmaning ishga tushishi bilan u namoen bula boshlaydi. Ishga kirish fazasi virus programmadagi belgilangan vakt, oy, yil yeki nusxa kuchirishning belgilangan sonlaridan keyin ruy beradigan vokelik bilan boglikdir. Va nixoyat, vayron kilish fazasida ommaviy zararlash amalga oshiriladi.

Ko'payish jarayonida viruslar uzlarining xayoliy nusxalarini boshka programmalarga uzatadi yoki diskning ma'lum soxalariga urnashib oladi. Sungra asl virusning uzi bulib koladi va ular kupayish jarayonini davom ettiradilar, ya'ni yangi virtual nusxalarni kuchiradilar.

Viruslarning kup turlari shunday yaratilganki, ular zararlangan programmani ishlatganda rezident bulib kolaveradi., ya'ni DOSni yuklashdan oldin komp yuter xotirasida vakti-vakti bilan boshka programmalarni zararlab boradi va noma'kul xarakatlarni amalga.

Viruslarning xarakati juda tez amalga oshadi xamda xech kanday xabar bermaydi. Shu sababli, foydalanuvchi komp yuterdagi noxush uzgarishlarni uzi sezishi lozim.

Kompyuter zararlanganda, bir kancha garoyib xodisalar yuz beradi:

- ba'zi bir programmalar ishlamaydi yoki yomon ishlay boshlaydi;

- ekranga boshka xabarlar yoki simvollar chika boshlaydi;

- kompyuter ishlashi sekinlashadi;

- ba'zi bir fayllar buziladi yoki ularning xajmi ortikcha xar xil yozuvlarni kushish xisobiga uzgaradi, kattalashadi;

- operativ xotiraning bush joyi kiskaradi;

- sistemali disketadan programmalarni yuklash kiyinlashadi yoki umuman yuklanmaydi va x.k.

Shuni ta'kidlash kerakki, programmalar va xujjatlar tekstlari, berilganlar bazasining axborot fayllari, jadvallar va boshka shunga uxshash fayllar zararlanmaydi. Ular fakat buzilishi mumkin.

Virus bilan kuyidagi turdagi fayllar zararlanishi mumkin:

Bajariluvchi fayllar: COM va EXE kurinishidagi fayllar. Fayllarni zararlaydigan viruslar fayl viruslari deyiladi. Bajariluvchi fayllardagi viruslar, shu fayl tegishli bulgan programma ishlaganda uz faoliyatini boshlaydi.

-Operatsion sistemaning va kattik diskning asosiy yuklovchi yozuvlari fayllar. Bu soxalarni zararlaydigan viruslar yuklovchi yoki but viruslari deyiladi. Bunday viruslar komp yuter yuklanishi bilan ishlay boshlaydi va u rezidentlik xolatiga utadi, ya'ni doim komp yuter xotirasida saklanadi. Tarkalish mexanizmi - komp yuterga kuyiladigan disketalarning yuklovchi yozuvlarini zararlanishi. Bularda joylashgan viruslar shu kurilmalar, kurilmalar drayverlari, ya'ni xar xil kurilmalar ishini ta'minlovchi programmalarga murojaat kila boshlaganda ishga tushadi.

Diskdagi fayl sistemani uzgartiradigan viruslar DIR deb ataladi. Bu viruslar diskning bir soxasida fayllarning oxiri sifatida yashrinadi. Ular kursatkichlar boshini oxiriga olib utib kuyadi va NDD(Norton Disk Doktor) bilan tekshirganda diskning buzilganligi ma'lum buladi.

Ko'p viruslar uzini sezdirmaslik uchun sistemada DOS ga murojaat kila boshlaganda fayllarni xuddi oldingi xolatidek ishlashini ta'minlaydilar. Kurinmas viruslar shunday tarzda xarakat kiladi.

Uzi differentsiallanuvchi viruslar esa, uzini formasini takomillashtiradi. Kup viruslar boshkalar uning ishlash mexanizmini sezib kolmasliklari uchun uzinig katta kismini kodlangan xolda saklaydi. Bu alatta bunday viruslarni topishda kiyinchiliklar tugdiradi.

Ba'zida disketadan xech narsa kuchirmasdan xam, undan kandaydir programmani yuklamay turib virus bilan zararlanishi mumkin. Masalan, shunday STONE yoki MARS kabi viruslar mavjudki, ular komp'yuterni yokishingiz bilan yoki kayta yuklaganingizda, ichida disketa kolib ketgan bulsa, zarar yetkazishi anik. Bunday viruslar BOOT - viruslar deyiladi. BOOT Sektor - yuklanuvchi soxa degan suzdan kelib chikkan. Komp yuter yokilishi bilan disketa orkali yuklanihga xarakat kiladi biroq komp yuter agar yuklanish disketasi bulmasa buni uddasidan chika olmaydi. Lekin disketa kanday bulishidan kat i nazar Voot_viruslar komp yuterni bemalol zararlaydi, shuning uchun extiyotkorlik talab kiladi.

Eng yaxshi ximoya turi -viruslarni kay tarzda ta sir etishini bilishdir. Viruslar oddiy programmalar bulib , biror garoyib kuchga ega emaslar.

Komp yuter viruslar bilan zararlanishi uchun undagi biror -bir zararlangan programma ishlashi talab kilinadi. Shuning uchun komp yuterning birlamchi zararlanishi kuyidagi xollarda ruy beradi:

1. komp yuterdagi virus bilan kasallangan programmalar yuklanishi (SOM, VAT yoki yeXE fayllar) yoki moduli zararlangan programmani ishlatilishi

2. Kompyuterga virusli disketning yuklanishi:

3. Komp yuterga zararlangan OS yoki kurilmalarning zararlangan drayverlarini urnatilishi .

Viruslardan kuyidagi usullar bilan ximoyalanish mumkin:

- disketadan ukilaetganda albatta virus borligiga tekshirish ;

- axborot nusxalarini kuchirish, shuningdek disklar va axborotni saklash uchun ishlatiladigan umumiy koidalardan foydalanish, diskklarni jismoniy zararlanishdan, programmalarni esa buzilishdan saklash;

axborotdan nokonuniy foydalanishni oldini olish uchun programmalardan foydalanishni cheklash, xususan, programma va ma'lumotlarning viruslar ta'sirida uzgarishidan, notugri ishlaetgan programmalar va foydalanuvchilarning notugri xarakatlaridan ximoya kilish;

- viruslar bilan zararlanish extimolini kamaytiruvchi chora - tadbirlar;

- viruslar bilan kurashuvchi maxsus programmalardan foydalanish.

Antiviruslarni quyidagicha guruxlash mumkin:

- detektor va doktor viruslar bilan zararlangan fayllar va zararlantiruvchi virus turini aniklaydigan programmalar (Aids, doktor Web, Virus Scan, NU VS). Bu turdagi antiviruslar fayllarda viruslarning bayt kombinatsiyalari mavjudligini tekshirib, mos bulgan axborotni ekranga chikarib beradi. Ba'zi detektor programmalar viruslarning yangi turlariga moslasha oladi, buning uchun shu viruslarga mos bulgan baytlar kombinatsiyasini belgilab berish kerak . doktorning vazifasi zararlangan fayllar va disk soxalarini tekshirib,ularni dastlabki xolatiga kaytarishdir. Tiklanmagan fayllar, odatda ishlatib bulmaydigan xolga tushadi yeki yuk kilib yuboriladi .
- vaksina programmalar yeki immunizatorlar disk yeki programmalarini shunday uzgartiradiki, bu narsa programmalarining ishida namoen bulmaydi, lekin vaksinatziya ishlatilgan virus programma va disklerini zararlaga deb xisoblanmaydi.

Keng tarkalgan antivirus programmalaridan biri Doctor Web(Dr.Web) xisoblanadi. Quyida biz uni kanda ishlatish mumkinligini kursatamiz. Albatta Doctor Web xar doim yangilanishda buladi , chunki yangi virus programmalar paydo buladi. Doctor Web da ishni boshlash uchun u joylashgan katalogdan Dr. Web.exe programmi kompyu terga yuklanadi. Natijada quyidagi xolat paydo buladi.

Bunda ekranning eng yukori kismida Dr.Web antivirus programmasining menyusi paydo buladi .

Uning yordamida vaktincha Dr.Web dan chikib turish(Vremennoy vo'xod) , programmadan chikish (Vo'xod) va programma xakida (O PROGRAMME) komandalarini bajarish mumkin.

Menyuning test bulimida xotirani tekshirish (test pamyati),tekshirish (testirovanie), davolash (licheniya), statistika , fayl xisoboti mavjud.ular virusdan ,lichenie yordamida put dlya chteniya - davolpsh yuli kursatiladi.vremenniy vo'xod buyrug yordamida dr.web dan vaktincha chikib turiladi.

Nazariy savollar:

1. Kompyuter viruslari nima?
2. Qanday namoyon bo'ladi?
3. Virusdan himoyalash usullari
4. Antivirus dasturlar haqida nimalarni bilasiz?

Amaliy mashg'ulotlar uchun Topshiriqlar:

Topshiriq 1:

1. Antivirus dasturini ishga tushiring.
2. Dastur gorizontal menyusi bilan tanishib chiqing.
3. Kompyuter xotirasini dastur orqali tekshiring.
4. Yumshoq diskni virusga tekshiring.
5. A:, F(flesh): disklerini virusga tekshiring

Foydalanish uchun adabiyotlar ruyhati:

1. S.I.Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent,1998 ,224 bet
2. Yu.Shafrin Osnovo' komp yuternoy texnologii. Moskva 1997.
3. M. Aripov, Muxammadiev., "Informatika, informatsion texnologiyalari ", Uzbekiston milliy kutubxonasi,2004y, 276 bet
4. Aripov M., Xaydarov A., «Informatika», T., O'zMU, 2002 yil , 600 bet

Amaliy mashg'ulot № 14

PowerPoint: Prezentatsiya va animatsiyalar yaratish

MASHG'ULOTNING MAQSADI: Prezentatsiya va animatsiyalar yaratish usullarini amalda ko'rsatish.

MASHG'ULOTNING JIHOZI: ko'rgazmali material

- a) Kompyuter qurilmalari.

b) Turli amaliy dasturlar bilan ishlash.

MASHG'ULOT O'TISH VOSITASI: Pentium IV komp'yuterlari bilan jihozlangan komp'yuter sinfi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

a) Guruhning va xonaning darsga tayyorligini aniqlash.

b) Yo'qlama qilish.

v) Yangi mavzuning bayoni

g) **Kompyuter xonasida mashg'ulot olib borish.** O'rganganlari ustida mashq.

e) **Dars yakuni:** Mustaqil ish uchun individual topshiriqlarni berib, Kompyuterlarni o'rnatilgan tartib asosida o'chirish.

Amaliy mashg'ulot mavzusining qisqacha bayoni:

Power Point programmasi orqali quyidagi usullar bilan prezentatsiyalar yaratish mumkin:

- 1) Klaviatura bilan qo'lda:
- 2) PowerPoint dagi master avtosoderjaniya asosida:
- 3) Tayyor shablonlar asosida.

Birinchi yo'l uzoq, ikkinchi va uchinchi yaxshi. Eng yaxshisi ikkinchi yo'l, ya'ni master avtosoderjaniya asosida prezentatsiyalar yaratish.

Prezentatsiya deb biror doklad, ma'ruzaning asosiy joylarini slaydlar plakatlar asosida tushuntirib berishga aytiladi.

PowerPoint programmasi asosida kompyuter slaydlari yaratish mumkin.

Xar bir doklad, ma'ruza bo'limlardan, bo'limlar esa punktlardan iborat bo'ladi. Master avtosoderjanie yordamida doklad bo'limlarga, bo'limlar pu bo'linadigan qilib qo'yilgan.

1) PowerPoint ishga tushirilgach Master avtosoderjaniyani quyidagicha ishga tushirish mumkin: Fayl Sozdat Obshie Master avtosoderjanie OK

2) Dalee tugmasini bosish

Master avtosoderjaniening ikkinchi MD si ochiladi. U yerdan prezentatsiya tipi aniqlanadi. (masalan, predlagam strajenie, sobhaem durno'e novosti)

3) Prezentatsiya uchun ko'rinish tiplari (masalan, mozhsvoy shturm yoki sobhaet durno'e novosti)

Navbtdagi MD chiqadi. U yerdan prezentatsiyadan qanday foydalanish so'raladi.

4) Prezentatsiyani qanday ko'rsatishni tanlash xaqida so'rov chiqadi. Masalan komp yuter yoki internetda.

Dalee tugmasini bosing.

Yana navbatdagi MD chiqadi. Unda prezentatsiyani chop etasizmi degan savolga javob berish kerak.

5) Sarlavxa kiriting, maydonchalarga qo'shimcha axborot kiritib Dalee tugmasini bosing.

6) Gotovo tugmasini bosing.

PowerPoint birinchi slaydni ko'rsatadi. Ekranida ikkita oyna bo'lib, birinchi oynada ma'ruza strukturasi, ikkinchisida birinchi slayd joylashadi.

Endi chap oynadagi struktura asosida uning sarlavxasini, bo'limlarini, punkt nomlarini o'zgartirish mumkin, tekst na rangni o'zgartirish mumkin, tekstga jadvallar, diagrammalar joylashtirish mumkin. Prezentatsiyani tayyor shablonlar asosida yaratish uchun quyidagi ishlar qilinadi:

1) Fayl-sozdat -Prezentatsii:

2) Ko'rsatilgan shablonlardan birini tanlash (masalan, bizni plan yoki obhee sobranie)

PowerPoint tanlangan shablon asosida birinchi slayd ko'rsatadi. Uni taxrirlash, o'zgartirish lozim.

So'ng ikkinchi va boshqa Slaydlar yaratiladi. Bu usul ham yaxshi

